



MILLIY ARMIYA – DINA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

VATANPARVAR

Etgay

Zahiriddin Muhammad Bobur
tavalludiga

Nazar solsang, tinim bilmay, jon tanidin ul oh etgay,
Vatan ishqin bilmas ersa, ani elda gumrohi etgay.

Zamona tan olgan va lek dili nayson shohi bo'lsa-da,
O'zga joyda panohi izlab, yurt mehiridin kulohi etgay.

Magark'i dol aylasa, adl qaddin, ko'ngil g'amdin,
Olib obinorvotidin, bir tilim to'tiyo etgay.

Kimki sog'inch lazzatidin bahramand bo'lmagay hargiz,
Ulki ikki dunyo uchun kechib bo'lmas gunohi etgay.

O'z uyingdin boshing olib ketar bo'lsang, tingla, ash'or,
Boburnoma sani doim xavf-xatardan ogoh etgay.

Yor vasfiga Shohijahon, qad aylasa Tojima'hal,
Arjumandlik istasa kim Andijonda bunyod etgay.

Bobur Afg'on tomonlarda, Andajonin yotsa qo'msab,
Ruxsor aning kuvgularin oq qog'ozga siyoh etgay.

Guliruxsor UMMATOVA,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

54³ yil

1483–1530



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
4-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN
WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 13-FEVRAL
№7 (3173)





“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining yangilangan tahririda raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish bo‘yicha aniq maqsad va vazifalar belgilangan. Xususan, raqamli xizmatlar eksportini **5 milliard AQSh dollariga** yetkazish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan. Bu esa mamlakat uchun keng imkoniyatlarni ochadi: IT sohasida innovatsiyalar va startaplar faollashadi, yuqori malakali kadrlarga talab ortadi hamda minglab yangi ish o‘rinlari yaratilishiga xizmat qiladi.

Strategiyada sun‘iy intellekt yo‘nalishini rivojlantirish bo‘yicha ham aniq vazifalar belgilangan bo‘lib, **5 million nafar “sun‘iy intellekt yetakchilari”ni tayyorlash** maqsadi qo‘yilgan. Bu tashabbus aholining raqamli savodxonligini oshirish, zamonaviy ko‘nikmalarni kengaytirish hamda sun‘iy intellektdan foydalanish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada davlat boshqaruvi, sanoat, qishloq xo‘jaligi, bank-moliya va xizmatlar sohasida aqlli texnologiyalar keng qo‘llanilib, yangi ish o‘rinlari yaratilishi, mehnat unumdorligi oshishi va iqtisodiyot raqobatbardoshligi mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Yana bir muhim maqsad – hukumatning sun‘iy intellektga tayyorlik indeksida (*Government AI Readiness Index*)

O‘zbekistonning 50-o‘rinni egallashini ta‘minlash. Ushbu

RAQAMLI TARAQQIYOT SARI YANGI QADAM

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida belgilangan ustuvor vazifalarga muvofiq, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining yangi tahriri ishlab chiqildi. Ushbu hujjat so‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar, erishilgan natijalar, shuningdek global va mintaqaviy jarayonlardagi keskin o‘zgarishlar hamda yangi xavf-xatar va imkoniyatlarni inobatga olgan holda takomillashtirildi.

reytingda yuqori natija qayd etilishi, avvalo, davlat boshqaruvida sun‘iy intellektni joriy etish uchun zarur infratuzilma va huquqiy baza shakllangani, raqamli xavfsizlik kuchaygani, ma‘lumotlar bilan ishlash madaniyati hamda kadrlar salohiyati yuksalganini anglatadi. Bu esa davlat xizmatlari sifati va samaradorligining yanada oshishiga, qaror qabul qilish jarayonida esa shaffoflik va aniqlikning kuchayishiga olib keladi.

Ushbu vazifalarning barchasi yakunda raqamli iqtisodiyotning kengayishiga xizmat qiladi. **Raqamli iqtisodiyot – bu faqat IT sohasi emas, balki butun iqtisodiyotda ma‘lumot, texnologiya va innovatsiyalar asosida qiymat yaratish demak.** Masalan, elektron tijorat rivojlansa – savdo kengayadi; raqamli moliya xizmatlari kuchaysa – tadbirkorlik uchun kredit va to‘lovlar osonlashadi; sanoatda raqamli yechimlar joriy etilsa – tannarx pasayib, mahsulot sifati oshadi. Shu tariqa mamlakatning umumiy raqobatbardoshligi kuchayadi, eksport geografiyasi kengayadi, yangi bozorlar ochiladi.

Bundan tashqari, raqamli transformatsiya ijtimoiy hayotga ham bevosita ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ta‘limda masofaviy platformalar va sun‘iy intellektga asoslangan o‘qitish usullari bilim sifatini oshiradi. Tibbiyotda elektron tizimlar va AI diagnostika imkoniyatlari xizmat ko‘rsatish tezkorligini kuchaytiradi. Qishloq xo‘jaligida “aqlli” monitoring, suv va o‘g‘it sarfini optimallashtirish hosildorlikni oshiradi. Eng muhimi, fuqarolar uchun davlat xizmatlari qulaylashadi: navbatlar kamayadi, hujjatlar raqamli ko‘rinishga o‘tadi, inson omili qisqaradi.

Strategiya doirasida belgilangan raqamli maqsadlar amalda natija berishi uchun tizimli yondashuv zarur.

Birinchidan, inson kapitaliga investitsiya – ya‘ni ta‘lim, qayta tayyorlash va raqamli ko‘nikmalarni ommalashtirish doimiy bo‘lishi kerak.

Ikkinchidan, biznes muhitini qo‘llab-quvvatlash – IT kompaniyalari, startaplar, eksport qiluvchi xizmatlar uchun moliyaviy va institutsional rag‘batlar kengaytirilishi lozim.

Uchinchidan, raqamli xavfsizlik va ma‘lumotlarni himoya qilish masalalari kuchaytirilmasa, raqamli o‘sinh barqaror bo‘lmaydi.

To‘rtinchidan, davlat boshqaruvida ma‘lumotlar almashinuvi, yagona standartlar va integratsiya masalalari izchil yo‘lga qo‘yilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining yangi tahriri mamlakatning kelgusi taraqqiyot yo‘nalishlarini aniq belgilab beradigan muhim dasturiy hujjat. Unda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, raqamli xizmatlar eksportini kengaytirish, sun‘iy intellekt bo‘yicha kadrlar salohiyatini oshirish va xalqaro indekslarda yuqori natijalarga erishish kabi vazifalar ilgari surilgani – O‘zbekistonning global raqobatga tayyor bo‘lishini ko‘zlaydi.

Ushbu maqsadlar muvaffaqiyatli amalga oshsa, mamlakatda yuqori daromadli ish o‘rinlari ko‘payadi, davlat boshqaruvi yanada samarali va shaffof bo‘ladi, iqtisodiyotning barqaror o‘sishi uchun mustahkam raqamli poydevor yaratiladi.

Ramziddin NURIDDINOV,
“Taraqqiyot strategiyasi”
markazi bosh mutaxassisi



Surat sun‘iy intellekt yordamida tayyorlandi

BIRLASHGAN O‘ZAR, BIRLASHMAGAN TO‘ZAR

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasi mamlakatimiz taraqqiyotining “yo‘l xaritasi”ni chizib berdi. Ma‘ruzada yil sarhisobi, yangi yil rejasi, maqsad va vazifalari muhokama qilindi. Jamiyatning muhim bo‘lagi hisoblangan mahallaga alohida e‘tibor qaratilib, uning vakolatlari oshirildi, imtiyoz va imkoniyatlar yaratildi. Kamdan kam davlatlarda uchraydigan kamyob hodisa – mahalla tizimi o‘zini o‘zi boshqarish organi, demokratiya darsxonasi sifatida mamlakatimizning barqarorligi va farovonligiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Shu munosabat bilan Prezidentimiz 2026-yilni mamlakatimizda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e‘lon qildi.

Azaldan mahalla xalqimiz birlashuvi, bahamjihatligi, og‘izburchiligi, eng muhimi, ahilligining ramzi bo‘lib kelgan. Muammolar ayni shu mahallada hal qilingan, umumiy masalalar birgalikda yechilgan. O‘zbek millatining bebaho qadriyati sifatida bugun mahalla jahon hamjamiyati tomonidan ham e‘tirof etilmoqda. Mamlakatimizda mavjud 9 mingdan ortiq mahalla jamiyat barqarorligi, xalqimiz birdamligi va totuvligining muhim kafolati bo‘lib xizmat qilishi kerak.

Murojaatnomada mamlakatimiz qo‘shni davlatlar bilan tinchlikparvar siyosat yuritish, o‘zaro do‘stlik rishtalarini mustahkamlash masalalariga ham e‘tibor qaratilgan. O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston yetakchilarining mart oyida Xo‘jandda bo‘lib o‘tgan uchrashuvida birinchi marta uch mamlakat davlat chegaralarining tutash nuqtasi to‘g‘risidagi tarixiy shartnoma imzolandi hamda “Abadiy do‘stlik to‘g‘risida”gi deklaratsiya qabul qilindi. Mazkur deklaratsiya O‘zbekiston tashqi diplomatiyasining ulkan yutuqlaridan biri sifatida tarixga muhrlandi.

Ma‘ruzada ta‘kidlanganidek, bugun O‘zbekiston 38 milliondan ziyod katta xalqqa aylanib bormoqda. Mashaqqatli va sharaflı mehnatimiz bilan dunyoda hurmat topayotgan, ertangi kunga ishonch bilan dadil borayotgan, matonatli va g‘ururi baland millat ekanimiz alohida qayd etildi. Haqiqatan, o‘zbek millatini dunyo qaytadan tanimoqda, salohiyat va imkoniyatlariga baho bermoqda. Yer sharida O‘zbekiston degan geografik hudud borligini jahon afkor ommasi yaqindan bilmokda. Prezident ta‘biri bilan aytganda, biz o‘zgarishlarni kutib yashamaymiz, aksincha ularni o‘zimiz, o‘z aql-zakovatimiz va mas‘uliyatli mehnatimiz bilan yaratmoqdamiz.

Har yili O‘zbekiston aholisi o‘rtacha 2 foizga o‘smoqda. 2040-yilga borib, umumiy aholi soni 50 mln.gacha yetishi taxmin qilinmoqda. 1 milliondan ziyod o‘g‘il-qiz katta hayotga kirib kelmoqda. Bugungi kunda mamlakat aholisining 65 foizini yoshlar tashkil etmoqda. Demak, yoshlar mamlakatida asosiy e‘tibor ularga qaratilishi kerak.

Bugungi murakkab zamonda yoshlarimizni turli sinovlarga chidamli, vatanparvar insonlar etib tarbiyalash, xalqimizni yanada birlashtirish va jipslashtirishda o‘zini o‘zi boshqarishning noyob tizimi bo‘lgan mahallaning o‘rni va ahamiyati katta. “Mahalla yettiligi” yoshlarni chinakam komil avlod sifatida jamiyat koriga yarashida ta‘sirchan mexanizmlarni qo‘llashi talab etadi.

Hozirgi globallashuv zamonida xalqning birligi va birdamligi, o‘zaro bahamjihatligi har qachongidan-da dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Donishmand bobolarimizning “Birlashgan – o‘zar, birlashmagan – to‘zar”, hikmatli maqoli bekorga yaratilmagan. Kimki birlashdi – hayotda o‘zdi, g‘alabaga erishdi. Kimki birlashmadi – to‘zib, yo‘q bo‘lib ketdi.

Tarix davomida qanday og‘ir sinovlarga duch kelmaylik, biz, avvalo, birdamlikdan kuch oldik. Mashaqqatli kunlarda odamlarimiz, mahalla ahli yelkadosh bo‘lib, qiyinchiliklarni yenggan. Oila – oilaga, qo‘shni – qo‘shniga ko‘mak berib yashagan. Katta Farg‘ona kanalining qisqa muddatda qo‘lda qazilgani xalq jipsligining tengsiz timsolidir. Biz mana shunday o‘ta noyob qadriyatimizga doim sodiq qolishimiz, yosh avlodimizni ayni shu ruhda tarbiyalashimiz kerak.


Jahonda murakkab geosiyosiy va iqtisodiy muammolar tobora avj olib bormoqda. Bunday murakkab vaziyatda barcha davlatlar bilan teng huquqli va konstruktiv munosabatlarni yanada mustahkamlash, vazmin va oqilona ochiq tashqi siyosat olib borishga qaratilgan faoliyatni davom

ettirish, Murojaatnomaning asosiy yo‘nalishlaridan.

Yaqin qo‘shnilar bilan ko‘p asrlik do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va o‘zaro ishonch ruhidagi aloqalarni yanada rivojlantirishga kelgusida ustuvor ahamiyat qaratiladi. Ya‘ni mintaqamiz davlatlari o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy, transport-logistika, energetika, suv, ekologiya, xavfsizlik, madaniyat va ta‘lim sohalarida hamkorlik yanada chuqurlashtiriladi. Ayniqsa, Afg‘oniston bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, uni mintaqadagi iqtisodiy jarayonlarga keng jalb qilish asosiy maqsadlardan biri bo‘lib qoladi.

Muxtasar aytganda, Murojaatnoma kompleks rivojlanish yo‘llarini qamrab olishi bilan birga, xalqimizni yagona maqsad sari birlashib harakat qilishida yo‘lchi yulduz bo‘lib xizmat qiladi.

Shavkat BOBOJONOV,
Toshkent davlat yuridik
universiteti dotsenti, tarix
fanlari bo‘yicha falsafa doktori.
Kudrat IBRAGIMOV,
Toshkent davlat yuridik
universiteti katta o‘qituvchisi



QOR QO'YNI D A G I

**Fevral... qish fasli
Baxmal tog'lariga
o'zining so'nggi
hukmini o'tkazayotgan
pallalar. Qirlar oppoq
qorga burkangan.
Quyosh nurlari
qorga urilib, ko'zni
qamashtiradi.
Qadamlar ostidagi qor
g'ichirlab, sukunatni
buzadi.**

Yonbag'irlarni qor beozor ko'rpa misol qoplagan, ammo bu sovuq sukunat ortida jiddiy sinovlar yashirin. Hudud murakkab tabiiy sharoitlarga to'la. Bu yerda har bir qadamni puxta o'ylab tashlash talab etiladi. Bunday sharoitda jangovar mashg'ulotlarga kirishgan harbiy xizmatchi nafaqat qurolini, balki o'z irodasini ham sinovdan o'tkazadi. Qorli tog'lar bag'rida harakatlanish, pozitsiyalarni egallash va vazifalarni bajarish – har bir o'g'londan yuqori jismoniy tayyorgarlik, sabr-toqat va o'zaro birdamlikni talab qiladi.

Baxmal tog'larida harbiy xizmatchilar ishtirokida real jang sharoitlariga yaqinlashtirilgan navbatdagi mashg'ulotlar tashkil etildi.

Dastlab mashg'ulotlarda o'g'lonlar o'zlarining jismoniy tayyorgarlik darajalarini namoyon qilib, yakka tartibda 400 hamda jamoaviy tarkibda 5 km masofani zabt etdi. Shundan so'ng jarayonlar dala-o'quv maydonida davom etdi.

Mashg'ulotlarning asosiy vazifalaridan biri harbiy xizmatchilarning ekstremal sharoitlarda yashovchanlik qobiliyatini sinovdan o'tkazishdan iborat bo'ldi. Qalin qor, tik ko'tarilishlar, tor so'qmoqlar va doimiy sovuq – bularning barchasi rejalashtirilgan mashg'ulotning ajralmas qismi edi. Asosiy mashqlardan biri esa 50 kilometrga yaqin tog'li va qorli hudud bo'ylab piyoda marsh harakatlarini olib borishdan iborat. Chaqirimlarga cho'zilgan yo'l oddiy masofa emas, balki iroda, jismoniy tayyorgarlik va ruhiy barqarorlik sinovi hamdir.

Marsh davomida har bir qadamning alohida mashaqqat talab qilishi, ba'zan qor tizzagacha

botishi, ba'zan esa shamol yuzni chimchilab, ko'zni ochishga ham qo'ymasligi, og'ir yuk, qurol-aslahalar, muzlab borayotgan qo'l va oyoqlar – bularning bari harakatni sekinlashtiradi.

– Tog'larda vaqt boshqacha o'lchanadi, – deydi batalyon bosh serjanti birinchi darajali serjant Sardor Berdiyev. – Bu yerda soat emas, masofa va nafas muhim. Ushbu masofani bosib o'tishda harbiy xizmatchilardan chidamlilik, kuch va to'g'ri harakatlanish taktikasi talab etiladi. Yo'l davomida shaxsiy tarkib shartli dushman pistirmalarini aniqlash, zaharlangan hudud va minali maydondan o'tish hamda jangovar vazifalarni bajarish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini namoyon qilib boradi. Bu ko'nikmalar tinch sharoitda oddiy tuyulishi mumkin, ammo qishda, baland



JIDDIY SINOVLAR



harakatlar aniq. Har kim o'z vazifasini biladi.

– Bu kabi mashg'ulotlar nafaqat jismoniy, balki shaxsiy tarkib orasida mas'uliyat hissini ham oshiradi, – deydi podpolkovnik Madiyor Saidov. – Tog' sharoitida jamoaviy uyg'unlik muhim omil. Chunki bir kishining xatosi butun guruh harakatiga ta'sir qilishi mumkin. Tog'lar esa xatoni kechirmaydi. Bu yerda har bir qaror o'ylangan, har bir qadam hisoblangan bo'lishi kerak. Qalin qor qoplami, tik va sirpanchiq yo'llar, sovuq shamol mashg'ulot jarayonida qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirib boradi. Shunga qaramasdan, azamatlar mashg'ulotlarda belgilangan reja asosida izchil harakatlarni olib borishi darkor.

Aytib o'tish joiz, tog'li hududlar harbiy tayyorgarlik uchun doimiy sinov maydoni bo'lib, bunday mashg'ulotlar real sharoitlarga moslashish imkonini beradi. Ekstremal sharoitda o'tkazilgan ushbu mashg'ulotlar ham harbiy xizmatchilarning amaliy tayyorgarligini mustahkamlash, murakkab vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qildi. Baxmal tog'larida o'tkazilgan navbatdagi mashg'ulotlar reja asosida yakunlandi hamda belgilangan vazifalar to'liq bajarildi.

tog'larda ular hayotiy ahamiyat kasb etadi. 50 kilometr masofani piyoda bosib o'tgan harbiy xizmatchilar rejaga muvofiq, mashg'ulotlarni poligon hududida davom ettirdi. Jarayonlarda davlat chegarasini noqonuniy buzib o'tgan shartli dushmanni aniqlash va yo'q qilish bo'yicha harakatlar bajarildi. Hududda har bir qarorning muhimligi, jamoa bo'lib harakatlanish va o'zaro muvofiqlik mashg'ulotning asosiy talablaridan biri bo'ldi. Jarayonlar davomida ortiqcha shovqin yo'q. Buyruqlar qisqa,

Sherzod EGAMBERDIYEV,
"Vatanparvar"

OLIIY BOSH QO'MONDON STIPENDIYASI – YUKSAK ISHONCH va MAS'ULIYAT RAMZI

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta'lim sohasi tubdan isloh qilinib, uni davlat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida – maktabgacha ta'limdan tortib, oliy va harbiy ta'limga qadar – mazmun va sifat jihatdan yangilanishlar joriy etildi. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida o'quv reja va dasturlar qayta ko'rib chiqilib, raqamli texnologiyalar, innovatsion o'qitish usullari hamda zamonaviy baholash tizimlari amaliyotga keng tatbiq etilmoqda. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, yoshlarning intellektual salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, oliy harbiy ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qurolli Kuchlar uchun malakali, yuksak ma'naviyatli va zamonaviy bilimlarga ega kadrlar tayyorlash maqsadida harbiy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, professor-o'qituvchilar salohiyati oshirilmoqda. **Ta'lim jarayoniga raqamli platformalar, simulyatsiya va trenajyorlar, sun'iy intellekt elementlariga asoslangan o'quv tizimlari joriy etilib, kursant**

va tinglovchilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga alohida urg'u berilmoqda.

Bunday islohotlar natijasida ta'lim nafaqat bilim berish vositasi, balki yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, milliy qadriyatlarga hurmat va umuminsoniy tamoyillarga sadoqatni mustahkamlashning muhim omiliga aylanmoqda.

Shuningdek, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning davomi sifatida ilk bor Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti hamda uning tasarrufidagi institutlarning bitiruvchi bosqichida tahsil olayotgan kursantlar o'rtasida joriy qilingan Oliy Bosh Qo'mondon stipendiyasi yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim tashabbuslardan biri bo'ldi. 2025-yil 14-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yoshlar bilan o'tkazilgan ochiq muloqot davomida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ilm-fanni ommalashtirish maqsadida **“O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar bilan ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”**gi Prezident farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmonga muvofiq, 2025/2026-o'quv yilidan boshlab, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida

bitiruvchi bosqich kursantlari uchun tanlov asosida Oliy Bosh Qo'mondon davlat stipendiyasi joriy etildi. Shuningdek, ushbu stipendiya sohiblari bakalavriat bosqichini tamomlaganidan so'ng besh yil davomida oliy harbiy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichiga imtihonsiz qabul qilinishi belgilandi.

Ushbu stipendiya yuksak intellektual salohiyati, xalqaro va respublika miqyosida o'tkazilgan olimpiada, musobaqa va tanlovlarda erishgan yuqori natijalari, o'quv-tarbiya jarayonidagi a'lo ko'rsatkichlari, namunali intizomi hamda tashabbuskor iqtidorli kursantlarni rag'batlantirish maqsadida ta'sis etildi.

Oliy Bosh Qo'mondon stipendiyasi oliy harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan eng ilg'or, bilim va salohiyati bilan ajralib turadigan kursantlarni qamrab oladi. Mazkur stipendiyaga nomzodlar tanlash jarayoni shaffof va adolatli mezonlar asosida amalga oshiriladi: ularning bilim darajasi, fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari, ilmiy-ijodiy faolligi, jamoat ishlaridagi faol ishtiroki, tashabbuskorligi, intizomi va eng muhimi, vatanparvarlik ruhidagi sa'y-harakatlari atroflicha o'rganiladi.

Bu esa stipendiyani oddiy rag'batlantirish vositasidan ko'ra, harbiy ta'lim tizimida yuksak natijalarga intilish ramziga aylantirmoqda. Ushbu stipendiyaning joriy etilishi yoshlar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirib, har bir kursantni o'z ustida

yanada ko'proq ishlashga, bilim va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga, zamonaviy harbiy ilm-fan yutuqlarini chuqur o'zlashtirishga undamoqda. Natijada ta'lim jarayonida faollik, izlanish va tashabbuskorlik yanada kuchaymoqda.

Ayni paytda mazkur tashabbus davlat tomonidan yosh avlodga bo'lgan yuksak ishonch va e'tiborning yorqin ifodasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero Vatan himoyasi kabi sharaflari va mas'uliyatli vazifa aynan bilimli, fidoyi va yuksak ma'naviyatli kadrlarni talab etadi. Shu ma'noda, **Oliy Bosh Qo'mondon stipendiyasi nafaqat bugungi yutuqlarni e'tirof etadi, balki kelgusida mamlakat tinchligi va xavfsizligini ta'minlaydigan salohiyatli ofitser kadrlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.**

Quyida esa ana shunday yuksak e'tirofga sazovor bo'lgan kursantlarning fikr-mulohazalari, ularni ushbu yutuqqa olib kelgan mashaqqatli mehnati, kundalik intilishi va kelgusi reja-maqсадlari bilan yaqindan tanishamiz. Ularning har biri ortida tinimsiz izlanish, ustozlar sabog'i, qat'iyat va Vatanga sadoqat tuyg'usi mujassam. Stipendiya sohiblari uchun bu nafaqat shaxsiy g'alaba, balki yanada katta mas'uliyat, o'z bilim va salohiyatini amalda namoyon etish, safdoshlariga namuna bo'lish imkoniyati hamdir.

Ularning samimiy fikrlari va hayotiy qarashlari mazkur tashabbusning ahamiyatini yanada yaqqol namoyon etadi.



– Oliy Bosh Qo'mondon stipendiyasiga sazovor bo'lganimni eshitganimda juda katta faxr va hayajonni his qildim, – deydi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti 4-bosqich kursanti Hosilbek G'ofurjonov. – Chunki bunday yuksak e'tirof har bir yosh, ayniqsa kursant uchun katta sharaf. Bu nafaqat mening o'qishdagi natijalarim, balki intizom, mas'uliyat va Vatanga sadoqat yo'lidagi mehnatimga berilgan baho bo'ldi. Shu paytda o'zimga nisbatan talablarim yanada oshganini his qildim. **Ushbu stipendiyani olganimdan so'ng har bir dars, har bir mashg'ulotga oddiy vazifa sifatida emas, balki kelajakda Vatan himoyasiga xizmat qiladigan muhim tayyorgarlik bosqichi sifatida qaray boshladim.** Ushbu e'tirof menga bir joyda to'xtab qolmaslik, o'z ustimda doimiy ishlash va har jihatdan namuna bo'lishim kerakligini anglatdi.



– Menga berilgan ushbu e'tirof davlatimiz tomonidan yoshlarga bildirilayotgan yuksak ishonch ramzi deb bilaman, – deydi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti 4-bosqich kursanti Umidjon No'monov. – Bu ishonch insonni faqat o'qishda emas, balki ma'naviy jihatdan ham tarbiyalaydi. Chunki bunday e'tirof har bir qadamda, har bir qarorda Vatan oldida javobgar ekanini eslatib turadi. Ushbu

stipendiyani qo'lga kiritganimdan so'ng o'qishga, xizmatga bo'lgan mas'uliyatim ancha oshdi. **Endi o'zimga “Men stipendiya sohibi sifatida qanday bo'lishim kerak?”** degan savolni ko'p beryapman. Intizom, bilim, jamoadagi faollik – barchasi yuqori darajada bo'lishi shartligini his qildim. Endi o'z oldimga Vatan himoyasi yo'lida sidqidildan xizmat qilish, xalq ishonchini oqlash va harbiy kasb sharafiga yanada yuksaltirishni maqsad qildim. Oliy Bosh Qo'mondon stipendiyasi menga ana shu yo'lida qat'iyat bilan olg'a intilish uchun katta kuch berdi va bu yo'lida bor energiyamni sarflayman.



– Ushbu stipendiya joriy qilinganini eshitgach, ushbu e'tirof menga ham nasib qilarmikan deya o'z ustimda tinmay ishladim, o'qidim, o'rgandim, – deydi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Harbiy aviatsiya instituti 4-bosqich kursanti Avazbek Tursunov. – Tun-u kun shu maqsad haqida o'ylab, bilmagan narsalarimni puxta o'zlashtirish, harbiy fanlar bilan bir qatorda umumiy saviyamni ham yuksaltirish payida bo'lardim. Mashg'ulotlardan keyin ham qo'shimcha adabiyotlar o'qib, ustozlarimdan maslahat so'rab, har bir vazifani mas'uliyat bilan bajarishga intildim. Aytishadi-ku, halol mehnat va qat'iyat hech qachon zoye ketmaydi, deb. Ortga qarab, o'sha mashaqqatli, ammo mazmunli kunlarni eslasam, har bir qadamim bugungi yutuqlar sari olib kelganini his qilaman. Qilgan sa'y-harakatlarim o'z mevasini berdi va men ham Oliy Bosh Qo'mondon stipendiyasiga loyiq deb topildim. **Bu nafaqat shaxsiy yutug'im, balki menga ishongan ustozlarim, ota-onam hamda safdosh do'stlarim oldidagi mas'uliyatimni yanada oshirgan ulkan ishonch va rag'batlantirish bo'ldi.** Endi

ushbu e'tirof meni yanada katta marralar sari undaydi, Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish va yuksak natijalarga erishish yo'lida to'xtamasdan harakat qilishga kuch-g'ayrat bag'ishlaydi.



– Stipendiantlar ro'yxatini ko'zdan kechirar ekanman, unda mening ham familiyam borligini ko'rib, bir lahza ishonmay qoldim: “Nahot, uddaladim, nahot, mana shunday yuksak e'tirofga loyiq ko'rildim!” degan hissiyotlar qalbmni chulg'ab oldi, – deydi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdagi qo'shinlar instituti 4-bosqich kursanti Javohir Tojiyev. – O'sha damda quvonchimning cheki yo'q edi: yillar davomidagi mashaqqatli o'qishlar, tun-u kun qilingan izlanishlar, o'zimni yengib o'tgan onlarim birma-bir ko'z oldimdan o'ta boshladi. Bu xabar men uchun oddiy yutuq emas, balki mehnatim, sabr-toqatim va qat'iyatimning e'tirofi bo'ldi. Eng avvalo, ustozlarimning ishonchi, ota-onamning duosi va safdoshlarimning qo'llab-quvvatlashi yodimga tushdi. Shu quvonchli onlarda zimmamdagi mas'uliyat yanada ortayotganini his etdim: **bu stipendiya meni to'xtab qolmaslikka, o'z ustimda yanada ko'proq ishlashga, bilim va mahoratimni doimiy ravishda oshirib, Vatanimga sadoqat bilan xizmat qilishga undaydi.** Chunki bunday yuksak e'tirof har bir kursant uchun faqatgina rag'bat emas, balki katta ishonch va yuksak mas'uliyat ramzi hamdir: u insonni o'z ustida to'xtovsiz ishlashga, bilim va mahoratini muntazam ravishda takomillashtirishga, har qanday vazifaga vijdonan yondashib, Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish yo'lida yanada baland marralarni zabt etishga chorlaydi.

Yuqoridagi kursantlarning fikrlaridan ko'rinib turibdiki, **Oliy Bosh Qo'mondon stipendiyasi**

har bir kursant qalbida katta orzu va yuksak maqsadlarga intilish ruhini shakllantirgan. Ularning so'zlarida faqat quvonch yoki faxr emas, balki chuqur mas'uliyat hissi, bildirilgan ishonchni oqlashga bo'lgan qat'iy iroda yaqqol seziladi. Bu esa mazkur stipendiyaning ahamiyati nafaqat moddiy rag'bat, balki ma'naviy kuch va ilhom manbai ekanini namoyon qiladi.

Stipendiya sohiblari o'z yutuqlarini shaxsiy muvaffaqiyat sifatida emas, balki ustozlar ta'limi, ota-onalarning duosi va jamoaning qo'llab-quvvatlashi samarasi sifatida baholamoqda. Bunday qarash esa **harbiy ta'lim muassasalarida shakllanayotgan sog'lom muhit, o'zaro hurmat va hamjihatlikning yorqin ifodasidir.** Eng muhimi, ularning har biri kelgusida Vatan tinchligi va xavfsizligini ta'minlashdek sharaflil burchni sidqidildan ado etishga tayyor ekanini ta'kidlamogda.

Umuman olganda, Oliy Bosh Qo'mondon stipendiyasi – shunchaki yuksak e'tirof yoki oddiy rag'batlantirish vositasi emas, balki davlat tomonidan yosh harbiy kadrlarga bildirilgan ulkan ishonch, katta mas'uliyat va porloq kelajakka qaratilgan strategik sarmoya. U nafaqat alohida kursantning muvaffaqiyatini tan oladi, balki butun harbiy ta'lim tizimida sifat, intilish va yuksak natijaga yo'naltirilgan muhitni mustahkamlaydi.

Mazkur stipendiya yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularni zamonaviy harbiy bilim va texnologiyalarni puxta egallashga rag'batlantirish, shu bilan birga yuksak ma'naviyat, sadoqat va ofitserlik sha'niga xos fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. **Zero zamonaviy armiya faqat kuch-qudrat bilan emas, balki bilim, tafakkur va mustahkam iroda bilan ham qudratlidir.**

Ana shunday ezgu va maqsadli tashabbuslar tufayli milliy armiyamiz saflari tobora bilimli, fidoyi, keng dunyoqarashli va Vatan taqdiriga daxldorlik hissi yuksak bo'lgan yoshlar bilan to'lmoqda. Bu esa Yangi O'zbekiston tinchligi va xavfsizligini ta'minlashda mustahkam tayanch bo'ladigan salohiyatli ofitser kadrlar zaxirasini shakllantirishga mustahkam zamin yaratadi.

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
“Vatanparvar”**

Islahotlar samarasi

ZAMON BILAN HAMNAFAS

Farg'ona viloyatida zamonaviy talablar asosida mukammal ta'mirdan chiqarilib, ilg'or texnika hamda axborot-kommunikatsiya vositalari bilan jihozlangan mudofaa ishlari boshqarmasining yangi ma'muriy binosi tantanali ravishda foydalanishga topshirildi.



Marosimda viloyat hokimi Xayrullo Bozorov, Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Aybek Saidov, harbiy xizmatchilar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, nuroniylar hamda yoshlar ishtirok etdi.

Tadbir ko'tarinki ruhda, davlat madhiyasi sadolari ostida boshlandi. Unda so'zga chiqqanlar so'nggi yillarda mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni rahbarligida milliy armiyamiz tubdan isloh qilinib, zamonaviy qiyofa kasb etayotganini e'tirof etishdi. Natijada harbiy infratuzilmani zamonaviy talablar



darajasida takomillashtirish ishlari muntazam olib borilayotgani, shuningdek harbiy xizmatchilar uchun munosib xizmat sharoitlarini yaratish, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ish samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanganini alohida ta'kidlashdi.

Yangi foydalanishga topshirilgan bino ham aynan shu islohotlar samarasidir. Xonalar keng va yorug', zamonaviy mebel va kompyuter texnikalari bilan jihozlangan. Elektron hujjat aylanishi tizimi, tezkor aloqa vositalari, arxiv va qabul xonalari, yoshlar bilan ishlash bo'limlari – bularning barchasi fuqarolarga tezkor va sifatli xizmat ko'rsatish imkonini beradi. Eng muhimi, endilikda chaqiruv jarayonlari yanada tartibli va shaffof tashkil etiladi. Harbiy xizmatga

otlanayotgan yoshlar uchun tushuntirish ishlari, tibbiy ko'rik va hujjatlarni rasmiylashtirish bir manzilning o'zida tashkil etilishi esa ish samaradorligini oshiradi.

Mutasaddilar ta'kidlaganidek, bunday sharoit yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularda Vatanga sadoqat, fidoyilik va mas'uliyat tuyg'ularini mustahkamlaydi. Chunki zamonaviy armiya, bu avvalo zamonaviy sharoit, intizom va yuqori tashkilotchilik demakdir.

Marosim yakunida mehmonlar yangi bino bo'ylab ekskursiya qildi. U yerdagi xonalar, axborot stendlari, kutubxona, yig'ilish zali hamda xizmat xonalari bilan tanishib, amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlariga yuqori baho berdilar.

– Bugun ko'rganlarimdan juda quvondim, – deydi faxriy harbiy xizmatchi Tojimirzo G'iyosov. – Biz xizmat qilgan yillarda bunday sharoitlar yo'q edi. Ish yuritishni oddiy usulda, qog'ozbozlik bilan bajarardik. Hozir esa hammasi zamonaviylashib ketibdi. Bu harbiylarimizga ham, xalqimizga ham katta yengillik. Avvalo, tartib-intizom kuchayadi. Sharoit yaxshi bo'lsa, ish ham samarali bo'ladi.

Ha, bugun Farg'onada qad rostlagan ushbu yangi maskan – shunchaki bino emas. U harbiy boshqaruv tizimining samaradorligini oshiradigan, yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlaydigan, yurt tinchligi va

xavfsizligi yo'lida xizmat qiladigan muhim dargoh sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, Farg'onada qad rostlagan ushbu yangi ma'muriy bino islohotlar mevasi, zamonaviy armiya sari tashlangan navbatdagi ishonchli qadamdir. U harbiy xizmatchilar uchun munosib shart-sharoit, fuqarolar uchun qulaylik, yoshlar uchun esa Vatanga sadoqat maktabi vazifasini o'taydi. Bu esa yurtimiz tinchligi va xavfsizligini ta'minlashda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Gulihumo MAJIDOVA,
Sharqiy harbiy okrug matbuot
xizmati bosh mutaxassisi



Navoiy tavalludining 585 yilligiga

ZAYNIDDIN VOSIFIY — ALISHER NAVOIYNING SHOGIRDI

Omma bu kunlarda ko'proq o'z oilaviy, maishiy dardlari bilan ovora bo'lgani uchun ham buyuk boy tariximiz, ulug' ajdodlarimiz merosiga unchalik e'tibor qaratmayotganini tan olmog'imiz kerak, ammo ilmiy jamoalar, akademiyalar, oliy o'quv yurtlari professorlari, fan doktorlari, ilmiy tadqiqotchilar, ya'ni kamsonli guruhning bu boradagi ishlari tahsinga sazovorligini, bajarilgan va bajarilayotgan ishlarning ko'lami ham kengligini e'tirof etmoq joiz, lekin nima bo'lganda ham u xuddiki, o'ziga o'zi kitob yozib, "Ishimni qoyil qilib qo'yganman", degan kishilarning iddaosiga o'xshash bir jarayon ekanini ham alohida ta'kidlamog' kerak.

Chunonchi, so'zim quruq bo'lmasligi uchun azim Toshkent shahrining fayzli mahallaridan biri Hastimom majmuasi tarkibidagi buyuk alloma Abu Bakr Qaffol Shohiy maqbarasida dafn etilgan Zayniddin Vosifiy haqida so'raganimda, har gal bu yerga kelgan ziyoratchilarning: "Shunaqa kishi ham bu yerga ko'milganmi?" degan hayratlariga duch kelaman. Yana boshqa tomoni, bu zotning "Alisher Navoiy qomusiy lug'ati"da (*Sharq*, 2016) "Shayxontohur qabristonida dafn etilgan", deb yozilgani odamni mulohazaga chorlaydi. To'g'ri, katta ishlarda ba'zi xatolar ham o'tib ketadi, ammo shu kungacha uning Abu Bakr Qaffol Shohiy maqbarasining kiraverishida, o'ng tomonda dafn etilgani to'g'risida ma'lumotlar berib kelinayotgan edi. Agar u zot Shayxontohur qabristonida dafn etilgan bo'lsa, unga izoh berilishi va manba aniq keltirilishi kerak edi, zero qomusiy lug'atlar talabi shunday: manbalar aniq, ishonchli va izohlar bilan to'ldiriladi, kamina e'tirozi noto'g'ri bo'lsa, uni xolisona fikr sifatida qabul qilinishi lozim. Shu muammo bor ekan, bu to'g'rida fikr yuritmasdan o'tib bo'lmasligini ham inobatga olarsiz, deb o'ylayman.

Modomiki, Zayniddin Vosifiy tariximizdagi ulkan siymolardan biri ekan, u zot xotirasiga hurmat ko'rsatish bugungi avlodining vazifasidir. Zero u bizning eng ulug'larimizdan biri, so'z mulkining sultoni, turkiy tilning boshqa tillardan kam bo'lmagan noyob qirralarini ko'rsatib bergan va bu tilda "Xamsa"ga o'xshagan asar yozish mumkinligini isbot etgan hazratimiz Nizomiddin mir Alisher Navoiyga sadoqatli shogird, zamondosh va unga yaqin bo'lganki, uning "Badoye ul-vaqoe" ("*G'aroyib voqealar*") asari orqali o'sha davr hayotini, buyuk shoirimiz va davlat arbobining g'aroyib va qiziq hayotidan ham bahramand bo'lamiz. Shuningdek, Zayniddin Vosifiy azim Toshkentning o'sha davrdagi ko'rinishlarini, bog'lari, mevalari, tabiati, suvlari, hatto mushk-anbarlari haqida batafsil hikoya qilgan. Bunga sabab u shu yerda uzoq yashadi va mehr ko'rdi, e'zozlandi, sharaf topdi. Demak,

o'sha paytlarda ham Toshkent ilm-fan, bunyodkorlik, savdo-sotiq, hunarmandlik va odamgarchilik markazlaridan biri bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

Zayniddin Vosifiyning hayot yo'liga qarasak, uning tole yulduzi chaqnaib, Temuriylarning eng gullagan ilm-fan va madaniyat shahri Hirottda 1486-yilda, munshiy oilasida tug'ilganiga shohid bo'lamiz.

Ota-onasi o'z davrining ziyoli qatlamiga mansub kishilar edi. Ular Zayniddinni diniy saboqlar bilan birga ilm-fanning turli sohalarini puxta egallashi uchun Hirottdagi eng nufuzli maktab va madrasalarda (*Shohrux madrasasida, 1511-yilgacha*) eng ilmdor ustozlar qo'lida o'qitdilar, saboq berdilar, jiddiy tarbiya qildilar. U 12-13 yoshlaridanoq ijod qila boshladi, arab tilini, turkiy va fors adabiyotini, fiqh (*qonunshunoslik*)ni puxta egalladi. Va ulug' va mashhur olimlar shahri bo'lmish Hirottda dovuqli olim sifatida sharaf qozondi. Buni mamlakat podshosi Sulton Husayn mirzoning salohiyatli o'g'li, obro'li shahzoda Faridun Husaynga ustozlik qilganidan va saroyda podshohning boshqa farzandlariga ham dars berganidan bilish mumkin. Chunki Temuriylar o'z farzandlarini hammaga ham ishonib topshirmagan, ular eng bilimdon ustozlamigina ularning tarbiyasi, ilm olishlari uchun taklif etganlar va yaxshigina haq ham berib, sharoitlarini ham to'kis qilib bergan.

Alisher Navoiyning nazariga tushganida, atigi 16 yoshda edi. Bu paytda u yosh bo'lishiga qaramasdan, MUAMMO ILMIda shuhrat qozonib, tilga tushgandi. Uning o'zi bu to'g'rida batafsil yozib qoldirgan. Aytishicha, muammo ilmiga qiziqib qolib, Hofiz G'amza degan kishidan Sayfi Buxoriyning "Muammo risolasi" kitobini ko'chirib olishga izn so'raganda, u kimsa: "G'or sichqoni qayda-yu, gulob qayda, kar quloq qayda-yu, rubob qayda?!" deya uning ustidan istehzo bilan kulgan. Bundan Zayniddin Vosifiy qattiq achchiqlanib, o'kirib uyiga qaytgan. "Bir burchakka o'tirib, odamlar bilan oshnachilik eshigini o'zim uchun berkitdim", deydi u.

Bir kuni namoz paytida Abdurahmon Chalabiy degan kishini uchratib qoladi. U juda holdan toygan, xarob bir holda edi. So'rab-surishtirib, uning yo'lda karvoni talangan savdogar kishi ekanini bilib, uni taxtiravonda uyiga olib kelib, tabibga ko'rsatib, parvarish qiladi. Biroz fursat o'tib, Abdurahmon Chalabiy kuchga to'lib, sog'ayadi va minnatdorlik uchun unga muammo ilmidan saboq beradi. Ko'p o'tmay, odamlari kelib, uni Iroqqa olib ketadi. Zayniddin Vosifiyga esa undan katta xazina – muammo ilmi esdalik bo'lib qoladi.

Bir kuni Hirotga Rumi muammoiy degan kishi tashrif buyuradi. Odamlar undan eshitgan muammolarni naql qila boshlaydilar. Vosifiy yozadi: "Do'stlarimdan biri uning nomi aytilgan bir muammosini Vosifiy yecha oladi, deb yuz tangaga u bilan garov o'ynaydi". Do'stlari uni uyiga qidirib kelib, shu voqeani bayon etadi. Zayniddin Vosifiy xasta edi. "Tobingiz yo'q ekan, sizni koyitib qo'yamiz", deyishlariga qaramasdan, u majlisga yetib borib, muammoni hal etadi. "Bu muammodan "Sayfi" nomini chiqarsa bo'ladi", deydi. Rumi muammoiy uning zehninga tan berib, "bir yazdiycha fo'ta va ellik xoniy tanga pul niyoz" qiladi.

Shu voqeaga guvoh bo'lgan Sohibdoro degan kishi bu haqda Alisher Navoiyga xabar berganida, u zot Zayniddin Vosifiyni darhol huzuriga olib kelishni buyurgan. Ulug' shoir soyasida Zayniddin Vosifiy ko'p yaxshiliklarni ko'rdi, bir qancha muhim voqealarga guvoh bo'ldi, shuhrati yanada oshib, ulug'lik darajasiga yetdi va o'shal kunlarda Sulton Husayn mirzo va Alisher Navoiy atrofida kechgan muhim voqealar, qiziqarli holatlar, Hirotning ko'zga ko'ringan kishilari, shoirlari haqida o'zining "Badoye ul-vaqoe" kitobida yozib qoldirdi. Shu bilan birga, Sulton Husayn mirzo va xalq hayoti bilan bog'liq bir qancha voqealarni ham tilga olib o'tganki, biz bu manbalar orqali juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Xususan, Temuriylar xalq tinchligi va osoyishtaligini o'zlarining muhim burchlari va vazifalari, deb bilishgan. Vosifiy yozadiki, 1498-yil (*hijriy 903*)da Hirottda bebosh kishilar ko'payib ketib, mahallalar tinchini yo'qota boshlaydi. Bu ishga oxiri Sulton Husayn mirzoning o'zi bosh-qosh bo'lib, qattiq choralar ko'rib, Hirot tinchligi va osoyishtaligini ta'min etadi. Oradagi ba'zi anglashilmovchiliklarni tekshirish va chora ko'rish esa Alisher Navoiyning zimmasiga yuklanganini ham tilga olib o'tgan.

Shoh Ismoil Safaviyning Hirot ustiga yurishi natijasida Zayniddin Vosifiyning ham tinchligi buziladi. Ta'qibga tushgani bois turonzaminga qochib o'tadi. Ma'lumotlarga qaraganda, 1515-yilda u dastlab Toshkent viloyatining Farkat (*Parkent*) va Nomdanak qishloqlarida yashaydi. Bu paytlarda Toshkentda Suyunxo'ja hokim edi. Uni Toshkentga chaqirib olib, kenja o'g'li Baroqxon (*Navro'z Ahmadxon*)ga tarbiyachi etib tayinlaydi. Biroq saroydagi ichki nizolar tufayli bu ishni tashlab, Toshkentdagi masjidlardan birida imomlik qiladi. 1517-yilda Samarqandga boradi. 1518-yilda esa Keldi Muhammad (*Shayboniylardan*) Shohruxiyaga chaqirtiriladi. Uning yonida xizmat qilib, yurishlarida ishtirok etadi. 1540-yilda esa Baroqxon saroyida eski o'zbek tilida davlat ishlarini yuritgani haqida ham ma'lumotlar mavjud.

Zayniddin Vosifiy o'zining "Badoye ul-vaqoe" kitobidagi 83 baytdan iborat masnaviysida Toshkentning go'zalligi, bog'-rog'lari, havosi, zilol suvlarini juda katta ko'tarinki ruhda madh etganki, ularni shunchaki nomigagina o'qish mumkin emas.

**Andoq bir shaharki, jannatmakondur,
Xijolatdan jannat siynasi qondir,**

deb bitgan u.

Mazkur masnaviy shoir, shayx Mirzo Kenjabek tomonidan mahorat bilan o'zbekchaga o'g'irilgan. "Badoye ul-vaqoe" kitobini esa qisqartirgan holda Naim Norqulov o'zbekchaga tarjima qilgan.

Zayniddin Vosifiy, ma'lumotlarga ko'ra, 1556-yilda Toshkentda vafot etgan va juda katta e'zoz, hurmat bilan Abu Bakr Qaffol Shohiy maqbarasi ichiga dafn etilgan.

To'liqin HAYIT



Harbiy ta'lim

MUQADDAS BURCH

...Xizmat safariga otlanyapmiz. Farg'onaga. Haftalik rejamizning bir kuni "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi faoliyati va o'quvchilariga ajratilgan. Manzilga yetib borgunga qadar, bu safar asosiy e'tiborni nimaga qaratishni taxmin qilib, bir to'xtamga kela olmasdim. Chunki bungacha ikki marta Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy akademik litsey faoliyatini yoritishimga to'g'ri kelgan. Shuning uchun endi o'quvchilar orasidan qahramon kashf etishim kerakligi taxminiyl rejalarimdan biri edi.



Aslida ta'lim maskanida tahsil olayotgan o'quvchilarning har biri qahramon bo'lishga arziydigan yoshlar. A'lochi, fanlar bo'yicha milliy hamda xorijiy sertifikatlar egalari. Bundan tashqari, sportda yoki qandaydir texnikani yasashda yutuqlarga erishgan. Xullas, qahramon tanlashga nomzodlar yetarli. Shuning uchun harbiy litseyning raketamodel va aviatsiya to'garagida dron yoki boshqa uchish apparatlarini yasayotgan va sport mashg'ulotlarida qatnashayotgan o'quvchilardan munosib nomzod topishimga ishonchim komil edi. Kunning ikkinchi yarmida to'garak mashg'ulotlari boshlanib, 12 nafar o'quvchi ustozlari Ilhom Abdullayev va Valeriy Vardanyandan navbatdagi saboqlarni olishga yetib keldi.

O'zini Xondamir Ahadjonov deb tanishtirgan baland bo'yli yigitni suhbatga tortdim. Farg'ona shahridagi 9-umumta'lim maktabida a'lo baholarga o'qigan Xondamir harbiy oila sulolasi ekanini ta'kidladi. Harbiy uchuvchi bo'lish haqidagi bolalik orzulari haqida hikoya qilar ekan, "Hozir sizga bir narsani ko'rsataman. To'g'rirog'i, yasayman" degancha bir qarich uzunlikdagi ikki dona faner bo'lagini bir-biriga sim bilan biriktirdi. Qaychida kesilgan qog'ozlarni yelim bilan plyus shaklini olgan fanerlarning uchiga yopishtirdi. "Bu sizga nimanidir eslatdimi?" deya savol bilan murojaat qilib, parrak ko'rinishidagi yasagan narsasini simidan ushlab, barmoqlari orasida aylantirardi. Ha, esladim. Bolaligimizda xuddi shunday parrakni qamish

yoki o'zagi bo'shroq g'o'zapoya cho'piga o'rnatib, samolyot qilib uchirardik. Xondamirning "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyida o'qishi, raketamodel va aviatsiya to'garagi mashg'ulotlarida qatnashishi bolalik orzularining pillapoyasi ekaniga amin bo'ldim. O'zim anglamagan holda ko'z o'ngimda gavdalangan bolalik xotiralarim sababli o'rtadagi suhbat elas-elas eshitilayotganday edi, go'yo.

– Xullas, bu dargohga bolalik orzularim sababli kelganman.

Xondamir o'zimga kelib olishimni kutganday, keyingi jummalarni aytishga shoshilmasdi. Aslida u xotirjam, fikrlarini mulohaza bilan shoshmasdan ifodalardi.

– "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi o'qishga kirishim, ofitserlik libosini kiyish yo'lida bosib o'tgan yo'limning yarmi deb o'ylayman. Yozda oliy harbiy ta'lim yo'nalishiga imtihonlarda qatnashaman. Hozircha bu yerdagi hayotim bilimlarimni oshirish, xorijiy tillarni o'rganish, to'garak va sport mashg'ulotlari bilan davom etyapti. Ha aytgancha, siz yozadigan narsaga bizning haqiqiy chempionimiz, do'stim Xolmatjon va boshqalar ham munosib. Uni hozir sport zalidan topasiz...

Hali 18 yoshga to'lmagan yigitchada shunchalik bosiqlik, kamtarlik va mulohazani kutmagandim, albatta. Do'stim Xolmatjon va boshqalar ham munosib. Uning bu gaplari bir mayizni qirqqa bo'lib yeb yurgan qadrdonlarni eslatib yubordi. Hozirdan jangovar birodarlik nima ekanini ortiqcha gap-so'zsiz ifoda etayotgan Xondamirga

omad tilab, sport zaliga yo'l oldim.

2008-yil 24-sentabrda Farg'ona shahrida tug'ilgan Xolmatjon Davlatovni topishim qiyin bo'lmadi. Murabbiyidan u erishgan yutuqlar sonini eshitib hayratlandim. Taekvondo ITF turi bo'yicha 7 karra O'zbekiston chempioni (*uch marta yoshlar, ikki marta o'smirlar va ikki marta kattalar o'rtasida*). Osiyo chempioni (*bir marta o'smirlar va ikki marta kattalar*). Shuningdek, aralash jang san'ati bo'yicha kattalar o'rtasida ikki marta respublika va bir karra jahon chempioni.

– To'g'risini ayt, kelajakda rostdan ham harbiy xizmatchi bo'lmoqchimisani?!

Xolmatjon qo'qqisidan berilgan bu savolning mohiyatini anglab-anglamay, bir lahza o'ylab oldi-da, o'z oldiga qo'ygan maqsadining qat'iyligini tushuntira ketdi.

– Boshida kelajakda harbiy bo'lishim oilamdagilarning, to'g'rirog'i, otamning xohish-istagi edi. Chunki otam o'zi erisha olmagan orzusiga farzandi erishishini, el-yurt oldida harbiy o'g'li bilan faxrlanishini tinmay qulog'imga quyardi. Boshida buni ota-ona oldidagi farzandlik burchim, deya qabul qildim. Endi esa ofitser bo'lish Vatan oldidagi muqaddas burchim ekanini anglab yetdim. Suhbatni nima uchun birdaniga bunday savol bilan boshlashingizdan tushunishimcha, sportda erishgan yutuqlarimni harbiy xizmat yo'lida qurbon qilayotganimdan hayratlandingiz-a? To'g'ri, sport faoliyatimda hali meni shon-sharaf, pul mukofotlari, uy, mashina va hokazolar kutib turgandir. Ammo men sport bilan bu maqsad yo'lida

shug'ullanmaganman. Shu yo'l orqali Quruqlikdagi qo'shinlar institutining Maxsus operatsiyalar kuchlari fakultetiga o'qishga kirishni maqsad qilganman. Boshqa kursdoshlarim ham o'z bilimi orqali harbiylikdan boshqa sohada yutuqlarga erishish imkoniyatiga ega. Rossiyaning Tver shahrida o'tkazilgan "Кадетский взгляд" nomli xalqaro tanlovda jamoadoshlari bilan 2-o'rinni egallagan Hasanboy Qorabekov, Sankt-Peterburgdagi xalqaro tanlovda xuddi natijani qayd etgan G'ayratjon Mamadaliyev – ular ham IT sohasida ofitserlikdan ko'ra ko'proq shuhratga erishishi mumkin-ku! Yoki fikrlarim noto'g'rimi?

– Mumkin, albatta...

– Albatta, mumkin. Ammo ular uchun ham Vatan himoyachisi bo'lish muqaddas burch. Kursdoshlarim orasida bundaylar juda ko'p. Salim Nuriddinov, Elmurod Qo'chqorboyev, Mirjalol Ahmadjonov va boshqalar haqida ham ishonch bilan shunday deya olaman. Chunki ularning barchasida turli fanlar bo'yicha milliy hamda xorijiy sertifikatlarning eng yuqori darajalari mavjud.

Endigina mo'ylovi sabza ura boshlagan o'spirinlardan bunaqa mulohazani kutmagandim. Vaziyatdan foydalanib, Xolmatjon aytgan yigitlar bilan ham birmabir suhbatlashdim. Ular ham xuddi Xondamir va Xolmatjonga o'xshab jo'yali fikrlaydi, kelajakka ishonch bilan qaraydi. Orzulari aniq maqsad sari yo'naltirilgan. Shaxsiy yutuqlaridan havolanib ketmagan. Suhbatlarimiz davomida ularning barchasi kamtarlik bilan o'zinikidan ko'ra, do'stlarining yutuqlarini e'tirof etgani e'tiborga loyiq. Xolmatjon Davlatov ta'kidlagandek, hammalaringiz uchun harbiylik Vatan oldidagi muqaddas burch bo'lib qolsin deya, bo'lg'usi ofitserlarning kelajakdagi rejalariga omad tiladik.

Asror RO'ZIBOYEV,
"Vatanparvar"

KITOB VA QUROL BIRLASHSA...



yorqin namunasidir. Buni u bilan suhbatlashsangiz, yanada chuqur his qilasiz. U bu haqda shunday deydi:

– Askarlik menga intizomni o'rgatdi, kitob esa teran

fikrlashni. Qurol qo'lni chiniqtirsa, kitob ongni mustahkamlaydi. Ikkalasi uyg'un bo'lsagina, askar chinakam kuchga aylanadi.

Shohjahonning kitobga bo'lgan muhabbati tasodifiy emas. Bu fazilat, avvalo, uning otasi – Salohiddin akaning shaxsiy namunasi orqali shakllangan. Badiiy adabiyotga oshno, kitobni hayot maktabi, deb bilgan ota farzandini ham mutolaa muhitida tarbiyaladi. Yosh Shohjahon bolaligidan kitob bilan do'st bo'lib ulg'aydi. Kechki paytlar qo'lida kitob bilan o'tirgan ota siymosi uning xotirasida muhrlandi, ilm va ma'rifatga bo'lgan muhabbatning ilk urug'lari aynan shu oilaviy muhitda qad rostladi.

Bu haqda u shunday eslaydi:

– Otamning qo'lida doimo kitob bo'lardi. U kishining sukunatdagi mutolaasi menga kuchli ta'sir qilgan. Bugun qanday natijaga erishgan bo'lsam, barchasi oilamdagi o'sha ma'naviy muhit samarasi.

Bolalikdan mutolaani o'ziga odat qilgan Shohjahon nafaqat badiiy asarlarga, balki ilmiy-ommabop va zamonaviy adabiyotlarga ham qiziqib o'sdi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari sohasiga bo'lgan qiziqishi ham erta namoyon bo'lib, u bilim va tafakkur orqali zamon bilan hamnafas yashashni, hayotda o'z o'rnini topishni maqsad qildi.

Harbiy xizmat esa Shohjahon uchun chinakam ma'naviy kamolot maktabiga aylandi. Mashaqqatli askarlik sinovlari jarayonida ham u kitobdan uzilmadi, bo'sh vaqtlarini mazmunli mutolaa bilan boyitdi.

– Xizmat davomida kitob men uchun ruhiy tayanch bo'ldi. Kundalik mashg'ulotlardan keyin mutolaa qilish insonni ichki muvozanatga keltirar ekan, – deydi u.



Bu intilishlar o'zining amaliy samarasini ham berdi. Shohjahon 2025-yilda Mudofaa vazirligi miqyosida o'tkazilgan "Eng yaxshi yosh kitobxon" ko'rik-tanlovida munosib ishtirok etib, tanlovning vazirlik bosqichida 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

– Bu g'alaba menga nafaqat quvonch, balki yanada katta mas'uliyat yukladi, – deydi qahramonimiz. – Men safdoshlarimga faqat xizmatda emas, balki kitobga bo'lgan munosabatim, mutolaaga bo'lgan mehmim orqali namuna, o'rnak bo'lishim kerakligini his qildim va shunday bo'lishga intilyapman. Asli bu ezgu intilish. Chunki yuqorida ta'kidlaganimdek, kitob insonning ongini boyitadi, har bir askarni haqiqiy vatanparvar, mas'uliyatli fuqaroga aylantiradi. Bunday ezgu maqsad yo'lida xizmat qilish esa men uchun yuksak sharaf.

Prezidentimiz tashabbusi bilan ilgari surilayotgan mutolaa madaniyati va harbiy muhitda yaratilgan imkoniyatlarning uzviy uyg'unligi o'z samarasini bermogda va bu oddiy askar Shohjahon Tolliboyev kabi kitobxon askarlar misolida yaqqol ko'zga tashlanmogda. Ma'naviy boylik va zamonaviy bilimni uyg'unlashtirgan bu yoshlar esa Yangi O'zbekiston armiyasining mustahkam qalqoni va kelajakka mas'uliyat bilan qaraydigan kuchini tashkil etadi.

Sharqiy harbiy okrug
matbuot xizmati

Bugungi Yangi O'zbekiston Qurolli Kuchlarida nafaqat jismoniy jihatdan baquvvat, balki yuksak ma'naviy va intellektual salohiyatga ega harbiy xizmatchilar xizmat qilmoqda. Bu esa, avvalo, harbiylar o'rtasida kitobga bo'lgan muhabbat, mutolaa madaniyatining tobora yuksalib borayotgani bilan bog'liq. Chunki kitob – askar ongini boyitadi, tafakkurini chuqurlashtiradi va uni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantiradi.

Shu bois Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ham harbiy xizmatchilar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib etish, mutolaaga bo'lgan qiziqishni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Bu yo'nalishda tizimli ishlar olib borish, ko'rik-tanlovlar tashkil etish orqali ma'naviy-intellektual salohiyatni yanada yuksaltirish muhim vazifa sifatida belgilab berildi.

Ana shu ezgu tashabbuslar va yuksak e'tibor samarasi bugun o'zining amaliy natijasini bermogda. Xususan, yosh harbiy xizmatchilar orasida kitobga mehr qo'ygan, mutolaa madaniyatini hayot tarziga aylantirgan fidoyi askarlar yuzaga chiqyapti. Shulardan biri – muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Shohjahon Tolliboyev bo'ladi.

Shohjahon Jizzax viloyati Do'stlik tumanida tug'ilgan, bugungi kunda Andijon viloyatidagi harbiy qismda muddatli harbiy xizmatni ado etmogda. Uning hayot yo'li va shaxsiy qarashlari kitob va harbiy xizmat o'rtasidagi uyg'unlikning



Armiya va adabiyot

Qalamning kuchi

QUROLNIKIDAN KAM EMAS

Shoir Salim ASHUR bilan suhbat



– Adabiyotning asl mohiyati nima, u inson qalbi va jamiyat hayotida qanday o‘rin tutadi? Sizni adabiyotga oshno etgan ilk tuyg‘ular, so‘z va ijod olamiga yetaklagan omillar haqida so‘zlab bersangiz.

ADABIYOT ezgulikka, yaxshilikka muhabbatdir. U bo‘lmasa, inson qalbi haqiqiy muhabbatni bilmasdi, tanimasdi, his qilmasdi hijron va visol o‘rtanishlarini, mehr-muhabbatdan mosuvo bo‘lardi. Adabiyot tufayli sevgi mo‘jizasi go‘zallik kasb etgandir. Adabiyotsiz dunyo juda xunuk va badbin, inson badbashara va xudbin bo‘lib qolardi. Adabiyot insoniyatning birinchi muhabbatidir. Shu bois insoniyat adabiyotdan uzilolmaydi, bil‘aks hamisha unga intiladi.

Adabiyot insoniyat qalbining javharidir, bu javhar insoniyatning qalbini yoritib, unga har qanday sharoit va vaziyatlarda yo‘lchi yulduz bo‘lib xizmat qiladi. Agar adabiyot javhar bo‘lmaganda “Oltun yorug‘”, “Qissasi Rabg‘uziy”, “Devonu lug‘ati-t-turk”, “Qutadg‘u bilig‘”, “Xamsa” yaratilmagan, agar adabiyot sevgi bo‘lmaganida “Tohir va Zuhra”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Romeo va Julietta” va yana qancha-qancha muhabbat qissalari yozilmagan bo‘lardi.

Adabiyot tiriklikda kunduzning quyoshi, tunning mohtobi kabitdir. Ularsiz hayot haroratsiz, yorug‘ emas, zulmat bo‘lib qolardi.

ADABIYOTNING ASL MOHIYATI – INSON, inson qalbi, ko‘ngli. Adabiyot insonga o‘zini ko‘rishni, o‘zini tahlil qilishni o‘rgatadi, o‘zini tanitadi. Adabiyot hayotni o‘rganuvchi va o‘rgatuvchi fan, adabiyot barcha fanlar ustidan fan. Hayotni, insondek yashashni, inson bo‘lishni, sevishtirish va sevilishni, jur‘atni, jasoratni, adolatni, to‘g‘rilikni, rost gapirishni, yolg‘on va soxtalikdan uzoq bo‘lishni o‘rgatadi adabiyot. Mabodo adabiyot bo‘lmasa, inson dunyosi kunduzsiz kechadan iborat bo‘lib qolardi deb tasavvur qilavering. Chunki adabiyot inson qalbiga ezgulik va yaxshilikdek ozuqa beradi, tiriklikka ezgulik va yaxshilik ulashadi. Adabiyot – inson qalbining, ruhiyatining tarbiyachisi, muallimi. Millatning

qalbi, ya‘ni orzu-umidi, ishonch va ilinji, qayg‘u va quvonchi, hasrat va armoni adabiyotda aks etadi.

Adabiyot **ERK VA OZODLIKDIR**. Ruh, xayol va fikr ozodligidir. Ozodlik va mustaqillik to‘g‘risidagi orzu va g‘oyani adabiyot odamlarga beradi, bu fikrlar real kuchga, harakatga aylanishida hal qiluvchi omilga aylanadi. XX asrning boshi va oxirida, jadid ma‘rifatparvarlari harakati va sho‘rolar istibdodidan xalos bo‘lish davri – o‘tgan asrning to‘qsoninchi yillarida adabiyot jamiyatning fikr va g‘oya generatoriga aylangan edi. Agar shunday bo‘lmaganda edi, dahshatli qatag‘on yillarida ajal komida – qamoqxona va turmalarda “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Spartak”, “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon” kitoblari qo‘lma-qo‘l titilib-katilib ketgunicha o‘qilmagan, kitob – badiiy so‘z qancha-qancha odamlarga umid, iroda, jasorat, mardlik bag‘ishlamagan bo‘lardi.

Adabiyot **MA‘NAVIYAT VA MA‘RIFATDIR**. Agar shunday bo‘lmaganda tarixiy taraqqiyotning Renessans davrlarida buyuk hukmdorlarning yonida buyuk shoirlar, buyuk tafakkur egalari turmagan bo‘lardi. Jadid adabiyotiga jamiyat ehtiyoj sezmagani bo‘lardi.

Adabiyot **MILLATNING XAYOLI, TASAVVURI, FANTAZIYASIDIR**. Shu uch narsasiz na ilm, na jamiyat rivojlanadi. Mirzo Ulug‘bekning xayol-tasavvuri yuksak osmon-u falaklarga, sirli koinotga parvoz qilmaganda qanchadan qancha kashfiyotlar hali ochilmagan bo‘lardi. Abu Rayhon Beruniy ummon ortida quruqlik mavjudligini xayol kuchi bilan tasavvur qildi. Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” negizi ijod, Muhammad Xorazmiyning algebra, geometriya, trigonometriya haqidagi “Al-jabr va al-muqobala”si ham ijodiy tafakkur mahsuli... Buyuk olim Eynshteyn: “Men matematiklar oldida shlyapamni yechaman, adabiyotchilar oldida ta‘zim qilaman”, deb bejiz aytmagani. Demak, ilmning mohiyati ijoddir. Ijodni yurgizuvchi kuch esa o‘zgarish, yangilik, islohdur. U

Sharqda jadid, G‘arbda modern deyilgan.

Adabiyot **MEHRDIR**. Agar shunday bo‘lmaganda go‘dak hech qachon onadan alla, qo‘shiq eshitmagan, ayanchli oqibatda manqurtlar ko‘paygan bo‘lardi...

Adabiyot **KO‘NGIL IFODASIDIR**. Agar shunday bo‘lmaganda baxshilardan dostonlar, roviylardan ko‘ngilo‘rtar qissalar eshitmagan, eshitganda yum-yum yig‘lamagan bo‘lardik. Kechalari uxlamasdan dilimiz mahbubalariga dil izhori qilmagan, ko‘ngil ochmagan, o‘tdek issiq maktublar bitmagan bo‘lardik.

Adabiyot **SIR-SINOATDIR**. Olam va odam sir-sinoatdan iboratdir. Agar shunday bo‘lmaganda, ertaklar, afsonalar bizga umrlik hamroh bo‘lmagan bo‘lardi.

Adabiyot **YIG‘I VA KULGIDIR**. Agar shunday bo‘lmaganda, inson yaqin kishilarini yo‘qotganda yig‘lab, o‘ksinib, dunyoga yangi chaqaloq – mehmon tashrif buyurganida kulib, shodlanmagan bo‘lardi.

Har bir inson bolaligida shoir bo‘ladi. Chunki bolalikda hayrat bor, xayol, tasavvur, fantaziya bor. Hayrat esa beg‘ubor, qalbi toza insonlarga ato etiladi. Inson ulg‘aygan sari bolaligini, demakki, hayratni, beg‘uborligini yo‘qota boradi. Kim shu hayratni, beg‘uborlikni ulg‘ayganda ham yo‘qotmasa, saqlab qolsa, u shoir bo‘ladi. Insonni hayrat shoir qiladi, toza ruhiyat shoir qiladi. Chunki hayrat aqlning emas, hissiyotning mahsuli. Shu ma‘noda insonni bolalik shoir qiladi; shu ma‘noda shoirlar bolalardir, shu ma‘noda shoirlar sakson yoshga kirganda ham bola bo‘lib qoladi, shoir bolaligini, demakki, hayratni boy bergan ondan boshlab shoir emas, oddiy qog‘oz qoralovchiga aylanadi. Shoir qalbi doim ziddiyatlar ichida yashaydi. Shoir qalbi va jamiyat o‘rtasida doim uyg‘unlik mavjud, bu ikkisi o‘rtasida uyg‘un kurash boradi. Bu kurashda shoir g‘olib chiqsa, daho shoir yoki buyuk shoir paydo bo‘ladi, aksincha bo‘lsa, odamlar orasida

yana bir adabiy maddoh yetishib chiqadi. Buyog‘i hayotning hukmi, odamlarning taqdiri bir-biriga o‘xshamagani kabi shoirlarning qismati ham har xil bo‘ladi. Bu haqda Rauf Parfi

*“Yuzma-yuz kelgandek go‘yo
o‘t va suv,
Yuzma-yuz keladi shoir
va zamon”,*

deb yozgan edi. Aytishadiki, fransuz adibi Gi de Mopassan: “Shoirlar qishloqlarda tug‘ilib, shaharlarda o‘ladi”, degan ekan. Bu gapni sal o‘zgartirib, “Shoirlar qishloqlarda tug‘ilib, poytaxtlarda o‘ladi”, desa ham bo‘ladi. Bu gapning ramziy ma‘nosi ham bor: ya‘ni qishloq – jamiyatning bola shakli, shahar, xususan poytaxt ulg‘aygan davri. Shoirni bolalik yaratadi. U ulg‘aysa, quvvatga to‘ladi, agar kattakon bo‘lib ketsa, o‘ladi. Shuning uchun o‘zi o‘lmay turib ijodi o‘lgan shoir, adiblar bor, shuning uchun o‘zi o‘lsa ham, asarlari yashayotgan adib-u shoirlar bor...

Adabiyoti, she‘riyati kuchli xalqning jamiyati, mamlakati, davlati ham kuchli bo‘ladi. Adabiyoti kuchli xalqni yengib bo‘lmaydi. Chunki millat ruhiyatini, qalbini, ongini, tafakkurini adabiyot, she‘riyat, san‘at tarbiyalaydi. Milliy g‘oya, milliy mafkura adabiyotning qat-qatida mavjud. Adabiyoti yashagan xalqning milliy g‘oyasi, milliy mafkurasi ham yashaydi. Adabiyoti kuchli millatning ma‘naviyati ham kuchli bo‘ladi. Abdulhamid Cho‘lpon: **“Adabiyot yashasa, millat yashaydi”**, deb bejiz aytmagan.

Adib, shoir jamiyat oldida burchdormi? Ha, qudratli millatni qudratli adabiyot yaratarkan, adib qudratli adabiyotni yaratish ishiga munosib hissa qo‘shishga burchdor. Afsuski, bu murakkab va mashaqqatli yo‘lda ayrim qalam egalari oson yo‘ldan borib, soxtakorlikka, sun‘iylikka, yolg‘onga beriladi. Adabiyot yolg‘on bilan chiqishmaydi. Yolg‘on aralashgan joyda adabiyot o‘ladi. Chunki chin adabiyot – haqiqat degani, haqiqatning yuz-ko‘ziga tik qarash degani.

ADIB JAMIYAT OLDIDA

BURCHLIMI? Ha, yolg'on aytmaslikka, rost aytishga burchli. Xalq yolg'on bilan rostni juda noziklik bilan farqlab oladi. Chunki xalq tafakkuri – cho'ng qudratli tog', bu tog'ga chirmashib chiqayotgan qancha-qancha qalam egalari yarim yo'lda qolib ketadi. Xalq qalbi tubsiz dengiz, shoirlar, san'atkorlar shu dengizdan dur-u javohirlar, gavhar-u marvaridlar teradi... Bu tog', bu dengiz maqsadi buzuq, niyati egrilarni qabul qilmaydi, kechirmaydi, itqitadi...

Bu uzoq daromaddan muddao shulkim, meni bolalik shoir qildi, menga shunday bolalikni taqdir etgan yurt shoir qildi, men onamning, opamning ta'sirida shoir bo'ldim. Men to'qqiz, o'n yoshimda katta daryo bo'yidan cho'lga ko'chib kelganmiz. Daryo bilan cho'lni yonma-yon tasavvur qiling, o'rtada qanday keskinlik, qarama-qarshilik bor. Cho'l kengliklari, cho'l bahori, – ming xil gul-u giyohlar, ming turli ranglar tug'yoni, – moviy, yashil, zangori-yu siyohlar, binafsha-yu chuchmoma, qizg'aldoqlar, sabiy vujudga ozurda ko'ngil joylagan ul chog'lar, qo'zigullar, qo'ziguldek dildiragan qo'zilar, onam shivirlagan qo'shiqlar-u sehrli so'zlar, opam aytgan sirli ertaklar, qorong'i tunlarda yuksaklarga chorlagan oy, yulduzlarga mahliyolik shoir qilgan bo'lsa, ehtimol...

– **Harbiy xizmatchilar orasida jasorat va sadoqat degan tushunchalarni keng targ'ib qilishda adabiyotning, xususan she'riyatning o'rni qanday?**

– Harbiy xizmatchilarga jasoratga, sadoqatga qodir yurakni adabiyot beradi. Ko'nglida adabiyotga, she'riyatga mehr bo'lmagan yigit jasoratga qodir bo'lmaydi.

Adabiyot yoshlarga Vatanni, millatni tanitadi. "Go'zal Turkiston" she'ri, "Kecha va kunduz", "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlari, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davron, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid va ko'p yaxshi shoir va adiblarning she'rlari, nasriy asarlari Vatan to'g'risidagi eng yaxshi saboqnoma, xalq to'g'risidagi eng afzal darslardir. Vatanni, millatni tanigan yigitgina har nechuk vaziyatda jasoratga qodir bo'ladi, mardona qadam tashlashga jur'at topadi.

– **Yaxshi bilasiz, mafkuraviy janglar avj olgan zamonda yashayapmiz. Bu harbiylarga ham, shoirlarga ham birdek mas'uliyat yuklaydi. Ayting-chi, bugunning shoirlari**

siyosatdan qay darajada xabardor bo'lmog'i kerak?

– Ha, mafkuraviy janglar avj olgan zamonda yashayapmiz. Bunday vaziyatda "Vatan himoyasi – sharaflı burch!" degan g'oya yanada dolzarblik kasb etadi. Jahon miqyosida globallashuv jarayonlari kuchayib, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash avj olayotgan hozirgi sharoitda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining o'rni va ahamiyati tobora ortib, harbiy xizmatchilarning jismoniy va ma'naviy shayligini oshirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jannatmonand yurtimizning turli hududlarida mard va jasur harbiylarimiz Vatanni himoya qilishdek eng ulug' ishni sharaf bilan ado etmoqda.

Ular Jaloliddin Manguberdi, sohibqiron Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur singari buyuk ajdodlarimizning shonli an'alarini munosib davom ettirayotgan Yangi O'zbekistonning chinakam qalqonlaridir.

Savolingizning ikkinchi qismiga kelsak, kim adabiyotni siyosatdan xoli deb o'ylasa, qattiq yanglishadi. Aslida eng katta siyosat adabiyotdir. Har qanday so'z, asar, fikr siyosatdir. Chunki u qalblarga ta'sir qiladi, ta'sir esa tafakkurni o'zgartiradi. Jo'n, puchak so'z ta'sir kuchiga ega emas, badiiy so'z esa energiyaga, ya'ni ta'sir qudratiga ega.

Siz bilan biz har kuni axborot vositalari orqali kuzatganimiz siyosat – bu ko'rinib turgan, zohir siyosat. Bundan tashqari, botin siyosat ham mavjud, u adabiyot, san'at orqali harakatga keladi. Mafkura ana shu bo'ladi.

Sog'lom mafkura bilan to'yingan, sog'lom ma'naviyat bilan "qurollangan" askar, ofitserning qo'li jangovar tayyorgarlikda ham,

mafkuraviy poligonlarda kechadigan kurashlarda ham baland keladi.

Shoirlar albatta siyosatchilardir. Nosirlar millatning badiiy tafakkuriga ta'sir qiladigan, uni yo'naltiradigan, shoirlar esa millatning qalbini parvarishlaydigan, tarbiyalaydigan siyosatchilardir. Ko'p ma'nolarga ega bo'lgan "Adabiyot siyosati" degan gap bejiz aytilmaydi.

Biz siyosat istilohi istifoda etilganda avvalo davlatlar o'rtasida kechadigan xalqaro munosabatlarni tushunishga o'rganib qolganmiz, bu, shubhasiz, to'g'ri. Xullas, so'z va fikr ham siyosat "quroli", qalb va ong esa siyosat maydonidir.

– **Ikkinchi jahon urushi yillarida "Jangchi Tursun balladasi" minglab o'zbek jangchilarining shoriga aylangan edi. Bugun ham harbiy xizmatchilar uchun vatanparvarlik, fidoyilik, jasorat mavzularida shunaqa asarlar yozilyaptimi?**

– Hamid Olimjonning "Jangchi Tursun balladasi"ni maktabda yod olgan edik. Bu asar bo'yicha insholar yozilardi. Jang chog'ida birzum ikkilanib, dovdirab qolgan yigitga onadan xat keladi. Ona farzandini mard va jasur bo'lishga da'vat etadi:

*"Vatan uchun to'kkali,
Yo'qmi bir qoshiq qoning?
Vatanning tuprog'idan,
Aziz ekanmi joning?!"*

O'g'lon onaning so'zidan kuch olib, qahramonlik ko'rsatadi va uning nomi shon-sharafga burkanadi.

Bunday da'vatkor she'rlar, asarlar, shubhasiz, bugun ham yozilayotir. Bu borada o'tgan yili e'lon qilingan O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning "Armiya va tarbiya" manzumasi ko'pchilikning yodida qoldi. "Mard askarga sovg'a" ruknida har yili kitoblarni nashr etiladi. 2025-yilda

"Millat fidoyilari" kitobi nashr etildi. Unda mustaqillik yillarida Vatan himoyasi yo'lida halok bo'lgan qahramon askarlarga bag'ishlangan asarlar jamlangan.

Harbiy-vatanparvarlik ruhida yozilgan she'rlar, manzuma va balladalar harbiylar, ayniqsa askarlar, ofitserlarning ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligini oshirish, ruhi va kayfiyatini ko'tarish, iroda-sabotini yanada toblashga, Vatanimiz mustaqilligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash muqaddas burch ekanini yana bir bor ta'kidlashga xizmat qiladi.

Bugungi saodatli kunlarni qadrlash, shukrona qilish, shu baxtli davron uchun jonini qurbon qilgan ota-bobolarimiz xotirasini ulug'lash, ota-ona, tug'ilib-o'sgan uy, kamolga yetkazgan qishloq singari muqaddas tushunchalarni aziz tutish xususida saboq beradi.

Bunday dolzarb mavzudagi asarlar bir-ikki marta yozilib, so'ng to'xtab qolmasligi, doimiy ravishda yozilishi, askar va ofitserlarning qo'liga yetib borishi kerak. Bu borada yozuvchi, shoirlarning harbiy xizmatchilardan, Vatan himoyachilaridan qarzi ko'p albatta. Keyingi paytda harbiylar, mamlakat sarhaddari himoyachilarining kundalik hayoti va jasoratga yo'g'rilgan faoliyati haqida yangi-yangi badiiy yuksak asarlar yaratilmoqda. Harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi salmoqli kitoblarni harbiy xizmatchilar tomonidan iliq kutib olinmoqda, keng jamoatchilik tomonidan qizg'in e'tirof etilmoqda.


Harbiy-vatanparvarlik mavzusi ijodiy faoliyatim davomida men uchun ham doim eng qiziqarli mavzu bo'lib keldi. Bu mavzuda harbiy xizmatda bo'lgan yillarimda, undan keyin ham ancha she'rlar yozganman. Yaqinda "Askar asri" degan she'riy to'plamni tayyorladim. Unda harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi she'rlar jamlangan. Ushbu kitob Yurtboshimizning **"Xalq va armiya – bir tan-u bir jon"** degan ulug'vor g'oyasini hayotga tatbiq etish yo'lida bir ijodkorning kamtarona xizmati bo'ladi, degan yaxshi niyatdaman.

Keyingi yillarda davlatimiz rahbarining da'vatkor tashabbusi bilan armiya va adabiyot, adabiyot va armiya doim yonma-yon, doim baqamti bo'lib kelmoqda. Chunki armiya Vatan sarhaddarini qurol bilan qo'riqlasa, adabiyot millat qalbini, xalq manfaatlarini badiiy so'z bilan himoya qiladi. Zero qalamning kuchi qurolning kuchidan kam emas.

**"Vatanparvar" muxbiri
Muhammadali G'AFFOROV
suhbatlashdi.**



Nazim



SALIM ASHUR IJODIDAN

Toshkent. Anhorlari yutdi “oh”larni,
Kalitlarni sotgan chin gumrohlarni,
Darxon, Xadra, Solor ham Janggohlarni
Yutmaydigan bo’lib keldi Ozodlik.

To’plar, zambaraklar tutdi gulshanni,
Nishonga oldilar e’tiqod, sha’nni,
Zanjir, bo’yinturuq, metin kishanni
Tutmaydigan bo’lib keldi Ozodlik.

Qoliplar, qafaslar, eski marralar,
To hanuz ingraydi zar-u zarralar,
Bitdi zirqiragan zaxm, yaralar
Bitmaydigan bo’lib keldi Ozodlik.

Yetdi mustaqillik – buyuk qoyaga,
Istiqlolni tutib abad – doyaga,
Yo’llari, so’qmog’i so’ng, nihoyaga
Yetmaydigan bo’lib keldi Ozodlik.

Azaldan aytilgan – itlarning ishi,
Itlarning ishidir it parvarishi,
Ufqlarni ko’zlar karvon tashvishi
Kutmaydigan bo’lib keldi Ozodlik.

Tishim, tirnog’im bor, bordir nomusim,
Madhiyam, Bayrog’im, Gerbim, Qomusim,
Qiblaga qaragan ko’zim va yuzim
Ketmaydigan bo’lib keldi Ozodlik.

G’ALABA BOG’I

Olamda ko’p erur bog’, xiyobonlar,
Jannatga tutgulik har bir butog’i.
Yurtimdan dunyoga tuhfa bu onlar –
G’alaba ramzi – bu G’alaba bog’i.

Istiqlol, har oning o’tsin omonda,
Seni qurshagan bu davron – bog’ erur.
Tarix aytadiki, har ne zamonda
Jasorat ham asli yuksak tog’ erur.

Ne-ne taloto’plar kechgan qasrda –
Dunyoda adolat quyosh yonlikdir.
Yigirma birinchi – notinch asrda
G’alaba bog’i bu qahramonlikdir.

Xalqim yurishlarda muzaffar bo’lgan,
Har qadam yangicha bunyodkorlikdir.
Eng buyuk cho’qqilar muyassar bo’lgan,
G’alaba yurtimga mangu yorliqdir.

Ulkan darsxonadir bu muzayyan bog’,
Bunga qadam qo’ygan barcha – talaba.
Ko’ring, avlodlarga mangu saboq –
Vatanim qozongan buyuk g’alaba.

Minglab mehr-shafqat, minglab jasorat,
Minglab vafotlar-u minglab hayotlar,
Sog’inch – dildagi eng chuqur asorat...
Yuragimdan o’tar qirg’inbarotlar.

Bu bog’ avlodlarga qolgay poydor,
Navqiron poytaxtning o’z yarashig’i.
Asrlar bog’i bu, bu g’olib sardor,
O’zbekistonimning ko’z qorachig’i.

Ko’kdan ko’chib tushdi Bog’i Eramlar,
Taskin izlab keldi Bobil bog’lari.
Mahzun xotiradek yog’ar shabnamlar,
Yog’ar yonib ketgan umr chog’lari.

G’amgin tomoshaga saf tuzdi falak,
Quyoshni mehmonga yubordi osmon.
Buyuk kelajakka tutash har yo’lak,
Buyuk zahmat bilan Vatan charog’on.

Dovruq taratgandir yetti iqlimga
Temurbek bog’lari, Bobur bog’lari.
Nur berib turibdi idrok, aqlimga
Vatanning abadiy nurchiroqlari.

Kitobingdan o’chsin urushlar dog’i,
Senga ta’zim qilsin shu yurt, shu zamon,
Doim yashnab tursin G’alaba bog’i,
Umring uzun bo’lsin, ey Hayot, bog’bon!

MANGU ASKARLIKKA KETGAN YIGITLAR

Tog’larni tik tutgan tirik qoyadek,
Quyoshga esh yurgan yorug’ soyadek,
Tandirni qizdirgan g’o’zapoyadek
– Mangu askarlikka ketgan yigitlar.

Qaylarda uzilgan rizq-nasibasi,
Hayotning eng achchiq mutoyibasi,
Qismat ham sizlarni hech koyimasin,
Mangu askarlikka ketgan yigitlar.

O’zbekistonimning pahlavonlari,
Kimning aka-uka, otajonlari,
Vatanning abadiy qahramonlari,
Mangu askarlikka ketgan yigitlar.

Turnalar keltirar sizlardan xabar,
Yellar bilan birga tutibsiz safar,
Kirib kelmoqdasiz yurakka qadar,
Mangu askarlikka ketgan yigitlar.

Ota-ona bilmas – ochsinmi aza,
Yoshmi yo qarimi, bor-da bir qazo,
Mushfiq insonlarga bu qanday jazo?
Mangu askarlikka ketgan yigitlar.

Siz tufayli tinchlik barqaror bo’ldi,
Zo’r qishlardan keyin zo’r bahor bo’ldi,
Boqiy hayot sizga sodiq yor bo’ldi,
Mangu askarlikka ketgan yigitlar.

Nomingiz, yodingiz suvratlardadir,
Mustaqillik degan jur’atlardadir.
Ajdodlar ochgan yo’l – qudratlardadir,
Mangu askarlikka ketgan yigitlar.

TINCHLIK

Tinchlik so’zin ma’no, salmog’i katta,
Dunyo yaralgandir Tinchlik so’zidan.
Elni tanigaylar yurtidan, albatta,
Insonni bilurlar avval ko’zidan.

Bahor kelayotir Tinchlik yoqlarga,
Horib kelayotir talafotlardan.
Tunlarda qarasam ko’k – chiroqlarga,
Ular ham bezibdi, ha, ofatlardan.

Kurtak bo’rtishi-yu, tuproq ko’pchishi,
Kapalak qanoti, barglar kaftida,
Turnalarning karvon bo’lib ko’chishi,
Ko’klam oftobining iliq taftida.

Musaffo osmonda bulut kemasi
Oppoq yelkanlarni yoyar ekan tez,
Olis yo’lga tushsa safar tevasi,
Qo’zilar o’tloqda gul hidlagan kez.

Tulpor o’mganida bo’rtgan qoyalar,
Chavandoz kaftini yorib yuborsa,
Yashil to’lqinlarda bedapoyalar
Oqimida suzib saharlar borsa.

Bir maromda nafas olganda, mayin
Havoning qatida osuda zichlik.
Ko’zlarim Vatanni o’pgani sayin
Yelkamga yashil to’n tashlaydi Tinchlik.

KATTA LEYTENANT ASILBEK MIRZAYEV

2000-yil 16-sentabrda Surxondaryo viloyatining
tog’li hududlarida xalqaro
terrorchi jangari to’dalarni qidirish va ularni
yo’q qilish bo’yicha
desant-ishg’ol harakatlarini bajarayotgan vaqtda
qahramonlarcha halok bo’lgan.

Asilbek Mirzayev – katta leytenant,
Andijondan. Yoshim yigirma beshda.
Vatanni qo’riqlar asl botir, mard,
Jonni fido aylar muqaddas ishga.

Ikki minginchi yil, sahar chog’ida
Mamlakat sarhadin buzdi yovuzlar.
Sariosiyoning qadim tog’ida
Osmonni tark etdi bir tun yulduzlar.

Dushman qadam qo’ydi tuprog’imizga,
Safdoshtarim bilan yo’lini to’sdim.
Hujumni qaytarib, jang adog’ida
Men yiqildim, oldga tashlandi do’stim.

Meni o’q to’xtatdi. To’xtaganim yo’q,
Yurt himoyasida metin qalqonman.
Ko’ksimda “Jasorat” medali bir cho’g’,
Tirikman, men Yangi O’zbekistonman!..

...Jonni fido aylab muqaddas ishga,
Yurtni qo’riqladi asl botir, mard.
Andijondan. Yoshi yigirma beshda
Asilbek Mirzayev – katta leytenant.


OZODLIK

Ozodlik to’kilgan qon bilan keldi,
Ozodlik berilgan jon bilan keldi,
Ozodlik or bilan, shon bilan keldi,
Ketmaydigan bo’lib keldi Ozodlik.

Umlar kurashda, suronda yitdi,
Kim Farg’ona, kim Marg’ilonda yitdi,
Kim Turkiston, kim Turonda yitdi,
Yitmaydigan bo’lib keldi Ozodlik.

Soyalar keladi Jizzaxga, dorga,
Nag’alli etiklar izi bor qorga,
Bolalar, bobolar o’tdi mozorga,
O’tmaydigan bo’lib keldi Ozodlik.

Chegara qo'shinlarida



Ayni kunlarda mamlakatimiz bo'ylab buyuk mutafakkir, so'z mulkinging sultoni Nizomiddin mir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi hamda o'zbek mumtoz adabiyotining yana bir yirik vakili, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 543 yilligi keng nishonlanmoqda.

IKKI DAHO – BEBAHO

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarida ham ikki buyuk bobokalonimizning hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Ikki daho – ikki bebaho" nomli ma'naviy tadbir tashkil etildi. Unda Navoiy va boburshunos olimlar hamda el suygan kino va teatr aktyorlari qatnashib, so'z olganlar o'zlarining Navoiy hamda Bobur Mirzo asarlarini o'rganish xususida olib borgan tadqiqotlari hamda ilmiy izlanishlari yuzasidan fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashdi.

Mazkur jarayonda ikki buyuk siymoning asarlarida ulug'langan insonni kamolot sari yetaklovchi milliy va umumbashariy g'oyalar bugungi kun uchun ham g'oyat ahamiyatli ekani ta'kidlandi.

Tadbirning badiiy qismida elimiz suygan san'atkorlar tomonidan Navoiy hamda Bobur asarlari asosida sahnalashtirilgan spektakllardan parchalar namoyish etildi.

– Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, hazrat Navoiy va Bobur Mirzo ijodi bizning

katta merosimiz. Shu sababli ularga hurmat-ehtirom bilan qarashimiz, kelajak avlodga ham bosqichma-bosqich tanitib borishimiz zarur. Jumladan, Navoiyning asarlari jahon durdonalari qatoriga kiritilgan. Uning buyukligi ham shunda, oradan qancha zamonlar, necha asrlar o'tmasin, bu asarlar hanuzgacha o'z qadr-qimmatini yo'qotmay kelmoqda va aminmanki, bundan keyin ham xuddi shunday bo'lib qoladi, – deydi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Turg'un Becnazarov.

Tadbir davomida yosh, iste'dodli aktyorlar tomonidan

Boburning yurt sog'inchi ila yo'g'rilgan ruboiylaridan namunalar o'qilib, g'azallariga bastalangan qo'shiqlar ham zo'r mahorat bilan ijro etildi. Garchi sarhadlarimiz posbonlari bu irod namunalarini maktab davrlaridayoq mutolaa qilgan bo'lsa-da, san'atkorlar talqinida go'yo Bobur Mirzo sahnada jonlanib, tilga kirgandek taassurot uyg'otdi va har bir tinglovchini Vatan qadrini yanada chuqurroq hamda teranroq anglashga undagandek bo'ldi.

– Bugungi uchrashuvda meni bir narsa mamnun etdi. Hazrat Navoiy haqida so'z

yuritganimda ham, Bobur Mirzo haqida o'zimning "Boburning gavharlari" deb nomlangan dostonimdan parchalar o'qiganimda ham tinglovchilarning ko'ziga boqsam, ular allaqachon bu ikki dahoga oshno bo'lgani, ma'naviyatini qalbiga jo etib, asarlarini sevib o'qiganlari shundoq sezilib turibdi, – deydi adabiyotshunos olim To'lqin Eshbek.

Ta'kidlash joizki, shu kabi tadbirlar mamlakatimiz bo'ylab Chegara qo'shinlariga qarashli harbiy qism va bo'linmalarda ham soha mutaxassislari taklif etilgan holda keng qamrovda tashkil qilinmoqda.

Albatta, bu kabi tadbirlarning o'tkazilishi chegarachilarimiz qalbini g'ururga to'ldirish bilan birga buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy merosini yanada chuqurroq o'rganishlariga ham imkon yaratadi.

**Mayor
Farida BOBOJONOVA**
DXX Chegara qo'shinlari



Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 543 yilligiga



Sen gulsenu, men haqir bulbuldirmen,
Sen shu'lasen, ul shu'lag'a men kuldirmen.
Nisbat yo'qdur, deb ijtinob aylamakim,
Shohmen elg'a, vale senga quldurmen.

Ushbu ruboiy orqali Bobur Mirzoning ayol zotiga bo'lgan mislsiz ehtiromini ilg'ash mumkin. Albatta, she'riyatda go'zal yor vasfi tashbehtar vositasida kuylanadi, ona obrazi mo'tabar siymo sifatida gavdalanitiriladi. Ammo nasrning yo'rig'i boshqa. Bunda yovuz qahramonlar ayollar ham bo'lishi mumkin va ular qora bo'yoqlarda gavdalanitiriladi. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"sida ham shundaymikan?

BOBUR MIRZONING AYOLLARGA EHTIROMI

"Boburnoma"da biror marta ayol portretiga duch kelmaymiz. Garchi mingga yaqin ayol haqida ma'lumot berilgan bo'lsa-da, biror o'rinda ularning tashqi ko'rinishi yoki kiyim-kechagi, bo'y-basti xususida gap yo'q. Misol uchun, amakisi Abusaid Mirzoning uchinchi o'g'li Mahmud Mirzoning o'n bir nafar qizining ismi, kimga turmushga chiqqani-yu, farzandlarigacha sanaydi. Ammo biror o'rinda badiiy portretini bermaydi. Faqat matn orasidagi umumiy bayonlardan qaysidir ayol haqida tasavvur paydo qilishimiz mumkin.

Misol uchun, Esan Davlatbegim obrazini olaylik. Bobur momosining ismini ilk marta singlisi Yodgor Sultonbegim haqida ma'lumot berayotganda yozadi: "Yodgor Sultonbegimni mening ulug' onam Esan Davlatbegim saxlab edi". Keyin esa Umarshayx Mirzoning "xavotun va sarori"da onasi – Qutlug' Nigorxonim haqida

ma'lumot berayotganida ona tomon bobo-yu momosi haqida mufassal bayon qiladi: "Ul fursatta Sag'richi beklarning ulug'i Sher Hojibek erdi, aning qizi Esan Davlatbegimni oldi. Mo'g'ul to'rasi bilan xonni va Esan Davlatbegimni bir oq kiyiz ustiga o'lturg'uzub xon ko'tardilar".

USHBU TARIXIY AYOL HAQIDA "Boburnoma"da berilgan eng mufassal ma'lumot "To'qqiz yuzinchi (1494–1495) yil voqealari" bo'limining avvalidadir: "Besh-olti oydin so'ng Hasan Ya'qubning mijozi munharif bo'lib, mening yovug'imdag'i kishi-qaro bila yamon maosh qila kirishtir. Ishni munga yetkurdikim, manga ruxsat berib, Jahongir Mirzoni podshoh qilg'ay. Hasan Ya'qubning ixtiloti soyir umaro va sipohi bila dag'i yaxshi emas edi. Aning bu fikridin bori el voqif bo'lub edilar. Xoja qozi va Qosim qavchin va Ali do'st tag'oyi va Uzun Hasan va yana ba'zi davlatxohlar mening ulug' onam Esan Davlatbegimning qoshida yig'ilib so'zni bu yerga qo'yдилarkim,

Hasan Ya'qubni ma'zul qilib, fitnasig'a taskin berilgay. Xotunlar orasida ra'y va tadbirda mening ulug' onam Esandavlatbegimcha kam bo'lg'ay edi, bisyor oqila va mudabbira edi. Ko'proq ish-kuch alarning mashvarati bila bo'lur edi".

Mana, "Boburnoma"da ayolning ma'naviy qiyofasi! Yuqorida aytganimizdek, garchand hech qaysi zaifaning surati yaratilmagan bo'lsa-da, ayrim o'rinlarda ularning siyrati ochib berilgan. Demakki, Esan Davlatbegim Bobur Mirzo o'n ikki yoshida taxt tepasiga kelganidan boshlab uning maslahatgo'yi ("Ko'proq ish-kuch alarning mashvarati bila bo'lur edi") bo'lgan oqila va mudabbira ayol, uning donishmand momosi ekan.

MUTOLAADA DAVOM
ETSAK, Bobur Mirzoning opasi Xonzodabegimning Shayboniixon qo'liga tushib qolish tafsilotlarini ham anglaymiz: "Bir mahalda Shayboqxon sulh so'zini orag'a soldi. Agar bir tarafdin umidvorlig'

bo'lsa, yo zaxira bo'lsa, sulh so'ziga kim quloq solur erdi. Zarurat bo'ldi, sulhguna qilib, kechadin ikki nakr bo'la yovushub edikim, Shayxzoda darvozasiyin chiqildi. Volidam xonimni olib chiqtim. Yana ikki xotun kishi chiqti: biri Bechka xalifa edi, yana biri Minglik ko'kaltosh edi. Mening egachim Xonzoda begim ushbu chiqqonda Shayboqxonning iligiga tushti".

Demakki, Bobur Mirzoning og'riq nuqtasi – opasining dushman qo'lida qolishi, yosh shahzodaning onasi bilan chiqib ketgani ayonlashdi. Ushbu voqeadan so'ng qolganlarning taqdiri biroz keyinroq ochiladi: "Necha kundin so'ng mening ulug' onam Esan Davlatbegimkim, men Samarqanddin chiqqonda qolib edilar. Samarqandda qolg'on ko'ch-urug' va och va oruq bila keldilar". Ana endi Bobur hayotidagi eng qiyin qarorlar qabul qilish davrida ("Ko'proq ish-kuch alarning mashvarati bila bo'lur edi") Esan



Davlatbeganing mashvarati bilan ish qilganiga amin bo'lamiz. Bu dono ayol sulhga rozi bo'lishga nafaqat nabirasi Boburni ko'ndirgan, balki ikkinchi nabirasi Xonzodabegimni ham dushman qo'lida yolg'izlatmagan ekanki, buni uning o'zi ham Samarqandda qolib, keyinroq Bobur Mirzoga kelib qo'shilishidan anglasak bo'ladi. Umuman olganda, Zahiriddin Muhammad Boburning bolaligidan tarbiyasi bilan shug'ullangan ayol ana shu momosi – Esandavlatbegim edi. Shu bois ham Bobur Mirzo "Boburnoma" uni katta ehtirom bilan tilga oladi.

Bir so'z bilan aytganda, "Boburnoma"da ayol tiynatini berishga yaxlit sahifalar ajratilmagan bo'lsa-da, matn tarkibiga turli voqealar tafsilotlari ichiga singdirilgan ekan.

MAQOLA AVVALIDA

AYTGANIMIZDEK, nasrning talabi o'zgacharoq, lirikadan farqli o'laroq bunda ayollar ham qora bo'yoqda tasvirlanishi mumkin. Ayniqsa, rostgo'ylik prinsipini mahkam tutib, "Rosti shu ediki, yozildi", deya faqat xolis tarixiy ma'lumotlarni keltirgan Bobur Mirzo tarixiy ayollar borasida ham haqqoniy ma'naviy portretlar yarata olgan. Misol uchun, Sulton Husayn (*Husayn Boyqaro*)ning xotini Beka Sultonbegim haqidagi ma'lumotlar anchayin xunuk taassurot uyg'otadi: "Avval olg'on xotuni Beka Sultonbegim edi. Sanjar mirzo Marviyning qizi edi. Badiuzzamon mirzo mundin tug'ib edi. Ko'p kajxulq edi. Sulton Husayn mirzoni ko'p og'ritur edi. Kajxulqligidin mirzo batang keldi, oxir qo'ydi va xalos bo'ldi, ne qilsun haq mirzo jonibi edi.

Tengri hech musulmong'a bu baloni solmag'ay. Yomon xo'yluq, kajxulq xotun ilohiy olamda qolmag'ay".

Bu o'rinda Bobur Mirzo Beka Sultonbegimni kajxulq deya atab, so'zining oxirida dunyoda u kabi xotinlar qolmasligiga duo qilayotganidan tushunamizki, bu ayolning yomon sifatlariga u bevosita guvoh bo'lgan. Yo'qsa, "derlarkim" kabi qo'shimchalarni qo'llab so'zlagan bo'lar edi.



Sultonlarning xotinlariga berilgan ta'riflar orasida eng mufassali shu. Qolgan o'rinlarda ayollarning faqat nasablari-yu farzandlari haqida xabar berilgan xolos.

Ayollarning ma'naviy qiyofasi haqida gap ketganda, ma'naviyatsiz qiyofasini ham misol keltirish mumkin: "Turdebek dedikim, Hulhul enaganing armoni borkim, sizning bila chog'ir ichgay. Men dedimkim, men ham xotun kishining ichganini ko'rmaydurmen, suhbatqa tilang... Tavr beg'ilu g'ash suhbate edi... Oxir o'zumni mastliqqa solib xalos bo'ldum".

TABIAT OSHIG'I BO'LGAN

Bobur Mirzo xazon sayriga chog'lanib, Turdebek ismli kishining uyiga boradi. Unga ot va ma'lum mablag' berib, ziyofat tashkillashtirishini so'raydi. Ana shu davraga bir ayol ham qo'shilmoqni istashi ayon bo'ladi. Turdebekning, "Hulhul enaganing armoni", deyishiga qaraganda bu xotin kekxa ayol bo'lsa kerak. Kekxa ayolning sarxush qiluvchi ichimlik ichishi, ichganda ham o'zini juda nojoiz tutishi natijasida oxiri Bobur Mirzo bu davradan "qochib qutuladi". Xullas, bu o'rinda qari mayxo'r ayol qiyofasi yaxshi taassurot qoldirmaydi. Ammo shu narsani alohida ta'kidlash joizki, hatto mana shu kekxa xotinning tashqi ko'rinishi haqida ham bir og'iz gapirilmagan.

Bobur Dahkat (*hozirgi Parkent tumani hududi*)da bir xonadonda bo'lgani, oila boshlig'i 60-70 yoshlardagi kishi bo'lib, uning qari onasi hayot ekanini hayrat bilan gapirib, o'sha ayol haqida ham biroz ma'lumot beradi: "Men bir kalontarining uyiga tushtum, qari kishi edi, oltmish-yetmishda bor edi, vale onasi hanuz bor edi. Xeyli umr topqon xotun edi, yuz o'n bir yoshta edi. Temurbek Hindustong'a kirganda bu xotunning uruq-qayashidin biri ul cherikka borib ekandur. Ul xotirida bor edi, hikoyat qilur edi. Bir Dahkatda ushbu xotunning o'zidin tuqqon va nabira va qiz nabira va nabirai nabira to'qson olti kishi hozir edi. O'lganlari bila ikki yuz hisob qilurlar edi. Nabirasining nabirasi bir yigit yigirma besh-yigirma olti yoshlar, qop-qora soqollik yigit edi".

Bu suhbatlar Bobur Mirzo "Aksar yalangoyoq yurur edim", deya eslagan davrlariga to'g'ri kelganini hisobga olsak, bir yuz-u o'n yoshli momoning butun avlodining hisobini o'rganganiga qaraganda qarindoshlaridan biri bobosiga askar bo'lgan bu ayol bilan ko'p suhbat qurgan, uning fe'l-u atvori shoh va shoirga manzur bo'lgan ko'rinadi.

UMUMAN OLGANDA, garchi Bobur Mirzo bir ruboysida "Guftoring erur boshdin ayoq

borchasi xub", deya ayol vasfini kuylagan bo'lsa-da, nasriy asarida bu "xub"liklarni bayon qilmaydi. Bizningcha, bu ijobiy ma'nodagi "rashk"ka uning chuqur diniy ilmi va u ulg'aygan muhit, qadriyatlar sabab bo'lsa kerak. Zotan, o'sha davr uchun biror ayolni o'zgaga ta'riflash er yigit, boz ustiga, Boburday qomusiy bilimlar egasi uchun joiz emasdi. Undan ham o'zgacharoq va haqiqatga eng yaqinroq variant esa ayol zotining suratini, so'z vositasida bo'lsa-da, birovga ko'rsatmaslik Bobur Mirzoning o'zigagina xos bo'lgan mardona xarakter bilan bog'liq, deyish mumkin.

Rostgo'y otaning haqqparvar qizi Gulbadanbegim "Humoyunnoma"da otasining ayollarga ehtiromi, boz ustiga, silayi rahmning yuksak namunasi bo'lgan bir voqea tafsilotlarini keltiradi. Ya'ni har juma kuni Bobur Mirzo Abu Said Mirzoning qizlari – ammalarining ahvolidan xabar olishga borar ekan. Bir kuni havo nihoyatda issiq, qolaversa, podshohning biroz tobi yo'q ekan. Shunda suyukli rafiqasi Mohimbegim "Bugun ammalaringizni ko'rgani bormasangiz, ular xafa bo'lmas", deya yo'ldan qaytarmoqchi bo'lganida Bobur Mirzo unamagan, "Ammalarim mening orqamdan musofir yurtlarga keldi, ularning holidan xabar olmasam, qandoq bo'lur?!" deya odatini kanda qilmagan ekan. Qolaversa, Ibrohim Lo'diyning onasiga, garchi keyinchalik unga suiqasd uyushtirgan bo'lsa-da, ona, ayol bo'lgani uchun ehtirom ko'rsatgani oliyjanoblikning yuksak namunasi.

Demakki, xotin-qizlarga ehtiromli bo'lish borasida ham zabardast sarkarda, shoh va shoir, qomusiy olim Zahiriddin Muhammad Bobur bugungi kunda ham ko'plarga ibratdir. Shubhasiz, Bobur Mirzo shaxsiyati va ilmiy-adabiy merosi shunchalik mahobatliki, u butun dunyo ahli uchun betakror timsol bo'lib qolaveradi.

Sitora TOJIDDINOVA,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori




Yonimizdagi odamlar

ARMIYANI YURAGIDA

ASRAB KELAYOTGAN INSON

Qurolli Kuchlarimizda o'tgan yillar davomida ko'p narsalar o'zgardi, zamonaviy qiyofa kasb etdi. Ana shu o'zgarishlar ichida yashasangiz, ehtimol, bugungi muazzamlilikni boricha ko'rish, his qilish xayolingizga ham kelmasa kerak. Xuddi yuksak tog'lar ulug'vorligi tog' etagida sezilmagani kabi. Buning ustiga avlodlar almashinuvi bor. Bir vaqtlar hayratga soladigan voqeliklar oddiy hayot tarziga aylandi.



1990-yillar, 2000-yillar bilan ayni kunlarni taqqoslasangiz, milliy armiyamiz bosib o'tgan shonli tarixga guvoh bo'lasiz. Oson bo'lmagan! Milliy armiyamizning tamal toshini qo'ygan – o'n sakkiz yashar askarlarning ham allaqachon sochlariga qirov tushgan, ofitserlar tarkibi mo'tabar yoshga yetdi, tabiiyki, ayriliqlar ham bor. Kasbimiz tufayli Qurolli Kuchlar faxriylarining ayrim yig'inlarida qatnashganmiz. Ana shu yig'inlarda faxriylarning botartibligidan hayratga tushaman. Aniq vaqtga rioya qilishlari, bekam-u ko'st kiyinishlari, o'zlarini tutishlari, o'zaro hurmat... Yo'q, ular harbiy hayotdan uzilib ketmagan, kerak bo'lsa, har qanday yoshda ham yana safga qaytishlari mumkin. Yuraklari urib tursa bas. **BU YURAKLARDA VATAN, ARMIYA AVAYLAB-ASRALADI!**

...Ahvoli kutilmaganda yomonlashdi. Shoshilinch Termiz harbiy gospitaliga olib kelishdi. Xotini – zaxiradagi jangchining jangovar yo'ldoshi, suv kelsa, simirib, tosh kelsa, kemirib o'tayotgan ayolning bor umidi shifokorlardan. Vaziyat juda jiddiy va xavotirli edi... Vaqt esa imillab bir joyda to'xtab qolgandek.

Nihoyat, xushxabar, ahvoli o'nglanibdi. Harbiy shifokorlar uni hayotga qaytardi. Oilaning quvonchi cheksiz. Ular misqolcha yaxshilikni unutmaydigan insonlar, shifokorlarga bo'lgan ehtiromlari, minnatdorliklarini qadrdon gazeta – "Vatanparvar" sahifalari orqali bildirishni lozim topibdilar.

Mudofaa vazirligi faxriy pensioneri, zaxiradagi podpolkovnik To'lqin MAMATALIYEV:

– Ular meni hayotga qaytardi! Ko'nglimda harbiy shifokorlarning sha'niga aytmog'chi bo'lgan gaplarim shu qadar ko'p, ammo negadir shu tobda oddiygina "rahmat"dan boshqa so'z kelmayapti.

O'tgan yili dekabr oyining o'rtalarida ahvolim og'irlashib qoldi. Meni tezlik bilan Termiz harbiy gospitaliga olib kelishdi. Bu yerda "bosh miyada qon aylanishining o'tkir buzilishi, ishemik insult" tashxisi bilan jonlantirish bo'limiga olishdi.



Avvaliga hech narsani sezganim yo'q. Voqelikni idrok qila boshlaganimdagina hammasini tushundim. Shifokorlar... Yaxshi ham borsiz!

Gospital jonlantirish bo'limi boshlig'i tibbiy xizmat mayori Feruz Rajabov, hamshira Albina Suleymanova, tibbiy xizmat III darajali serjanti O'tkir Qulliyev, kichik hamshira Saxovat Mustafoqulova – sizlardan cheksiz minnatdorman.

Nevrologiya bo'limi jamoasi, xususan bo'lim boshlig'i tibbiy xizmat mayori Bobur Xonkeldiyev, terapiya bo'limi boshlig'i tibbiy xizmat mayori Ravshan Masobirov, yurt xizmatida hech qachon charchamang, bor bo'ling! Bilaman, xizmatlaringizdan rozi yagona odam emasman, juda ko'p insonlarning dardiga malham topgansiz. Oilamning quvonchidan to'lqinlanib, bu haqda baralla aytgim keldi.

BUNISI BOSHQA HIKOYA

Bilasiz, Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilgan dastlabki yillarda tarbiyaviy ishlar yo'nalishiga yurtimizning bir qator oliy o'quv yurtlarini tamomlagan pedagog kadrlar jalb qilingan. To'lqin Mamataliyev ham Buxoro davlat universitetining Boshlang'ich harbiy ta'lim va jismoniy tarbiya fakultetini tamomlagan. O'qishni bitirganidan so'ng Sherobod tumanidagi 18-umumta'lim maktabida ko'p ishlamadi. 1992-yili hayotini armiya bilan bog'ladi. Va bu sharaflari yo'lni 2007-yilga qadar davom ettirdi. Agar qandli diabet tashxisi qo'yilmaganida, u yana bir necha yillar sadoqat bilan xizmat qilishi aniq edi.

Keling, shu yerda To'lqin Mamataliyevning xotini Shahodat Omonovani tinglaylik. Aytgancha, u ham pedagog. Hozir nafaqada.

– Harbiy xizmatdan keyin ham ishlashda davom etdilar. Bilasizmi, bu kishini kuzatib, armiyadan tamoman uzilib ketmaganlarini his qilaman. Shukr, farzandlarimiz hammasi o'qimishli, hayotda o'z o'rnini munosib



egallayotgan insonlar. Nabiralarimiz bor. Hayot quvonchlari, tashvishlari bilan yashab kelyapmiz. Armiya hayotiga kuchli mehr qo'ygan ekanlar.

"Vatanparvar" gazetasiga intiq bo'lib so'rab-surishtira boshladilar. Topish birmuncha qiyinroq bo'ldi.

Nihoyat, shu yil chiqqan to'rtinchi soni topildi. Gazetadan "Matonatli ayollar" maqolasini o'qib berdim. Buvining ko'zi ojiz nabiralarini "mevali daraxtning shoxini sindirasizlar..." deya urishganini o'qib, juda ta'sirlandim, titrab ketdim, u kishiga qarasam... ularning ham mijjalariidan yosh sizib chiqyapti. Biroz o'zlariga kelib:

- Kim yozibdi? – deb so'radilar.
- Inobat Ibrohimova.
- Opani taniyman...

Keyin "O'zbekiston armiyasi" jurnalining 2024 va 2025-yilda chiqqan ikkita sonini olib kelib berishdi. Quvonganlarini ko'rsangiz edi. Jurnalni biram silab-siypaladilar: **"Shunday bo'lib ketibdi-da, yozuvlar tilla suvi yuritilgandek, a?! Bularning kiyimlarini qarang, kakardasini ko'ring..."** Ularining ko'zlariga qarab, g'alati bo'lib ketdim: kasallikni tamoman unutgan, ko'zlari to'la sog'inch, armon, xayollari olis-olislarda. Qo'llarida tutgani bir jurnal emas, hayotlarining bir bo'lagi edi go'yo.

O'sha kunlari qizim Sevara kelib qoldi. Jurnalni ko'rib, hayratdan "voooyyy" deb yubordi. U Denovda yashaydi, uyida uy-bog'cha tashkil qilgan. Darrov bolalari yodiga tushib: "Dadajon, jurnalningizni menga bering, bolalarimga ko'rsataman", deb qoldi. "O'zbekiston armiyasi" ota-qiz o'rtasida shunaqa talash bo'ldi.

Biz bularni Shahodat Omonova bilan telefon orqali gaplashdik.

Jurnalistikaning noni qattiq. Ba'zan tishingni sindirib yuboradi, faqat tishingni, ruhingni emas! Mana shunday suhbatlar, e'tiroflarni eshitganingda umring besamar kechmagani, Qalam haqiga xiyonat qilmaganingni anglab, qalbing yorishadi.

Aziz hamkasblar, irod qilishdan to'xtamang, bizni kutishyapti, o'qishyapti.

P.S. To'lqin Mamataliyev xonadoniga "Vatanparvar" gazetasi, "O'zbekiston armiyasi" jurnalini yetkazib berishni Janubiy operativ qo'mondonlik markaz (press) boshlig'i III darajali serjant Akbar Ahmedov zimmasiga oldi. Bu, ehtimol, katta ish emasdir, ammo hazrat Alisher Navoiy deydilarki:

*Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay.*

Inobat IBROHIMOVA,
"Vatanparvar"

TOMOSHAGOH: ZAMONAVIY MOTAMDAN XAVF-XATARGACHA

Ha, zamonaviy dunyo odamlari borgan sari noodatiy burilishlar, xatar va o'lim bilan yuzma-yuz vaziyatlarni tomosha qilishga o'ch bo'lib bormoqda. Har bir noto'g'ri qadam, har bir xavfli harakat doimiy diqqat markazimizda. Ko'z oldimizda mingyillik qadriyatlar o'z shaklini o'zgartirib, ayanchli dramalarga aylanib bormoqda. Chin ma'noda bani odam qalbi va an'analari uchun yangi sinov davri boshlandi. Quyida biz yashayotgan olamda sodir bo'lgan ikki voqea misolida fikrimizni davom ettiramiz.

“KULI KO'KKA SOVURILGAN” BEN...

Balki, ko'rgandirsiz, o'tgan yilning bahorida ijtimoiy tarmoqlarda do'stining xokini osmoni falaklarda sochayotgan ikki parashyutchi voqeasi butun dunyo diqqat-e'tiborida bo'ldi. Ochiqlanishicha, marhumning kimligi, to'liq ismi, kasbi, mashhur sportchi bo'lgan-bo'lmagani, shuningdek qanday va qachon vafot etgani haqida ochiq va rasmiy ma'lumotlar yo'q. Shunchaki Ben parashyut sporti bilan shug'ullangan yoki shu sohaga yaqin kishi bo'lgan.

Qo'yilgan videoda ham do'stlari uning mashhur shaxs sifatidagi qiyofasini emas, balki o'zlariga yaqin bo'lgan inson yodiga chuqur hurmatni ifodalaganini aks ettirgan.

Lavhada qisqagina vidolashuv so'zlari yozilgan: “Xayr, Ben, yuksaklarga parvoz qill!”

Bu manzara ko'pchilikning ko'z yoshlariga sabab bo'lgan bo'lsa, ayrimlar osmon uzra sochilgan tuproq changidan turli yumorlar ulashishga ham ulgurdi. Hatto bizda ham “yuqoridan sochilgan chang”ni Toshkent havosining ifloslanishi bilan bog'lagan tarmoq memlari ham paydo bo'ldi.

Xo'sh, endi asosiy fikrimni ifodalasam. Xayolimda jonlangan ilk taassurot zamonaviy motam madaniyatining o'zgarib borayotgani bo'ldi. An'anaviy dafn marosimlaridan farqli ravishda Benning do'stlari uni “osmonga ko'mishdi”. Go'yoki erkinlik va poyonsizlik, dunyoga sig'mayotgan ulkan qalbga shu zaylda hurmat ko'rsatildi. Bu hol

kutilmaganda dafn marosimlarining ommaviy kontentga aylanib ketish xavfini uyg'otmasdan qolmaydi. To'g'ri, bu marhumning vasiyati yoki istagiga ko'ra, xoki boshqa tuproqqa ko'chirilgan tarixiy shaxslar ham talaygina. Ammo “ko'kka sovurilgan kul” millionlab odamlarning hissiyotlariga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Xulosa shuki, Ben bilan bog'liq bu voqea faqat bir insonning hayoti va o'limi haqida emas, balki zamonaviy jamiyat motamni qanday qabul qilayotgani va uni qanday namoyon etayotgani haqida ham o'ylashga majbur qiladi. Bunday vidolashuvning ijtimoiy tarmoqlarda tezda tarqalishi, har qanday fojining ham tomoshabop kontentga aylanib ketishi mumkinligini ro'yirost ko'rsatdi.

O'LIM BILAN YONMA-YON

Yana bir voqeaning sodir bo'lganiga ko'p bo'lmadi. Amerikalik 40 yoshli alpinist Aleks Xonnold Tayvandagi eng baland Taypey 101 binosini zabt etdi. U binoga hech qanday himoya vositalarisiz, xuddi cho'qqiga tirmashib chiqqandek ko'tarilib bordi. 1 soat-u 35 daqiqa vaqt sarflangan ushbu ekstremal harakatlarni Netflix kompaniyasi to'g'ridan to'g'ri translyatsiya qildi.

Baland binoga hech qanday arqon, xavfsizlik kamari yoki himoya vositasiz chiqqan yigit birzumda dongdor bo'lib ketdi. Bu holat tasodif emas, albatta. U barchaga avvalambor, 40 yasharlik inson kuch-g'ayratini ko'rsatdi, shuningdek ongli ravishda o'z hayotini xavf ostiga qo'yish orqali jamoat e'tiborida bo'ldi.

Xo'sh, nega bu voqea ommalashib ketdi? Agar u belidan arqon bog'lab, xavfsizlikka to'la rioya qilib, yuqoriga chiqqan bo'lsa, ehtimol, bu mahalliy xabar

sifatida nom-nishonsiz qolib ketardi. Chunki bunday mashqlar soha mutaxassislari tomonidan kerak bo'lsa, har kuni bajariladi. Insoniyat esa azaldan har soniya yurakni titratuvchi, entiktiruvchi, his-hayajonga soluvchi tomoshalarga o'ch bo'lib kelgan. Chunki inson ongi himoyasiz va mushkulotlardan chora topib keta oladigan sahnalarga doim tashna. “Hozir tushib ketadi”, “Yiqilsa, tuxumdek majaqlanib ketadi”, “Birgina noto'g'ri harakat uni narigi dunyoga kuzatadi” qabilidagi signallar miyamizni tinch qo'ymaydi. Nazorat yo'qligi, xato qilish imkoniyatining oshib borishi, kuchdan qolayotgan tana mohiyatidagi yashirin halokat tomchilari har bir insonni o'rab-chirmab oladi. Shu nuqtada ekstremal harakatlar dramatik sahnaga aylanadi.

Aslida bu yigitning mashhurligi uning faqat balandlikka chiqqanida emas, shu balandlikda yurakning urib chiqishga bo'lgan kuchli intilishi, o'z tanasi va irodasiga ishongani bilan bog'liq. Ha, yigit qurmag'ur o'z hayotini xavfga qo'yayotganini ich-ichidan yaxshi biladi, ammo o'lim va xavf bilan har soniyada o'ynashgan holda millionlab qalblarda kuchli hissiyot uyg'ota oladi.

O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidovning “Arslon o'rgatuvchi” she'rini bir eslang. Unda olov halqaga sakrashni istamayotgan yoldor yirtqich va o'rgatuvchi o'rtasida murosasiz suhbat kechadi. Agar arslon gurullab yonib turgan olov halqaga sakramasa – tomosha qizimaydi. Yirtqich sakrashga, uning sohibi esa tomosha ko'rsatishga majbur.

Ijtimoiy tarmoq kuzatuvchilari ham go'yo ana shunday xavf-xatar shaydosi. Chunki algoritmlar keskin

va chegaradan chiqqan kontentni yuqoriga ko'taradi. Natijada bunday harakatlar nafaqat shaxsiy rekord, balki global shouga aylanadi. Bir odamning o'z hayotini xavf ostiga qo'yishi millionlab odamlar uchun tomoshaga aylanadi, bu esa mashhurlikni tezlashtiradi.

Afsuski, zamonaviy mashhurlik ko'pincha mahorat emas, balki xavf darajasi bilan o'lchanmoqda. Qanchalik xavf yuqori bo'lsa, auditoriya shunchalik katta bo'ladi. Ammo bu mashhurlik ortida og'ir badal bor: u insonni yanada balandroq, yanada xavfliroq harakatlarga undayveradi.

Masalan, erta-indin o'sha alpinistning Burj Xalifaga chiqishi haqida o'qib qolsam, sira ajablanmayman. Chunki tomoshabin tez zerikadi, ekstremallik esa doim yangilanishni talab qiladi.

Gapning dangali shu: axborot asrida diqqat uchun kurash, xavf orqali mashhurlikka erishish inson psixologiyasining eng nozik nuqtasiga aylanib ulgurdi. Agar xavf bo'lmasa, tomoshabin ham bo'lmaydi. Agar tomoshabin bo'lmasa, mashhurlik ham yo'q.

Ko'rinib turibdiki, ko'zlarimiz ko'plab mudhish voqealarga tezda ko'nikishga ulgurdi. “Qalb prizma”miz ham kuchsizlanib bormoqdaki, go'yo biz endilikda har qanday axborotni tortinmay tanovul qilishga moslashgandekmiz. Axborot oqimi esa sezgilarimizni “tayoq ta'sir qilmaydigan qirchang'i”ga aylantirib qo'ygandek.

Bil'aks, axborot olamidagi hayotimiz oson kechmasligi aniq. Bunga qalban, vijdonan hozir bo'laylik!

Bobur ELMURODOV,
“Vatanparvar”



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Ajdodlar merosi

Alisher Navoiy nigohida MARDLIK MAKTABI

Xalqimiz tarixida Vatanga sadoqat, yurt tinchligi va xalq osoyishtaligini ta'minlash eng ulug' fazilat sanalgan. Bu g'oya asrlar davomida buyuk ajdodlarimiz ijodida ham, hayotiy qarashlarida ham o'z aksini topgan. Xususan, Sharq adabiyotining sultoni, mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy harbiy xizmatning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatiga alohida e'tibor qaratgan.

Navoiy nazarida harbiylar – davlat tayanchi, el-yurt osoyishtaligining posbonlari hisoblanadi. U o'z asarlarida mardlik, jasorat va fidoyilikni eng oliy insoniy fazilat sifatida ulug'laydi. Zero tinchlikni saqlash, adolatni qaror toptirish va mustaqillikni asrash kuchli va intizomli qo'shinsiz mumkin emas.

Buyuk mutafakkir harbiylarni shunchaki jang maydonidagi askar sifatida emas, balki xalqning ishonchli qalqoni, adolat himoyachisi deb biladi. Uning fikricha, agar jamiyatda adolatni himoya qiluvchi kuch bo'lmasa, zulm va tartibsizlik avj oladi. Demak, harbiy xizmat – davlat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omili.

Navoiyning ko'plab asarlarida sarkardalar obrazi orqali jasorat va mardlik fazilatlar tarannum etiladi. Ayniqsa, "Saddi Iskandariy" dostonida shoir harbiylikni oliyanob burch sifatida talqin qiladi. U yerda jangchi timsoli qo'rquvni bilmaydigan, adolat yo'lida jonini ayamaydigan inson sifatida tasvirlanadi:

**Harbiy kim – jang maydonida aslo qo'rqmas,
Adolat bayrog'i ostida jonidan kechmas.**

Bu satrlar harbiy kasbning naqadar sharafligi va mas'uliyatli ekanini yorqin ifodalaydi.

Navoiy ta'limotida harbiy inson faqat kuch egasi bo'lishi bilan kifoyalanmaydi. U halol, intizomli, vatanparvar va ma'naviy barkamol bo'lishi zarur. Chunki chinakam himoyachi, avvalo, qalban pok, irodasi mustahkam bo'lmog'i lozim. Shundagina u xalq ishonchini oqlay oladi.

Bugungi kunda ham bu g'oyalar o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Yurtimizda harbiy xizmatga bo'lgan e'tibor, askar va ofitserlarga yaratilayotgan sharoitlar, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilayotgan islohotlar Navoiyning ezgu qarashlari bilan hamohangdir. Harbiylarimizning fidoyiligi va matonati yosh avlod uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi



Xulosa o'rniida aytish mumkinki, Alisher Navoiy talqinida harbiy xizmat – sharaf, sadoqat va mardlik maktabi. Harbiylar esa davlatning qalqoni, adolatning posboni va tinchlikning kafolatidir. Ularning jasorati va fidoyiligi tufayli yurtimizda osoyishtalik va barqarorlik hukm surmoqda.

D. BUZRUKOVA,
Farg'ona davlat universiteti
Inklyuziv ta'lim kafedrasini
professor-o'qituvchisi

Tuyg'u

Meliboy ota yelkasiga choponini tashlab, hovliga chiqdi. Qishning qahri ancha yumshagan, quyosh taffini his qilsa, bo'ladigan havodan to'yib nafas oldi. Ota osmonga boqdi – moviy osmon uzra oq bulutlar sekin-asta suzib yuribdi, gohida qushlar galasi chug'ur-chug'ur qilib, o'tib qoladi.

– Bobo, bobojon! – degan ovozni eshitib, ota darvoza tomon qaradi. Darvozadan kichik qizi Umidaxon bolalari bilan kirib keldi, nabirasi Islomjon bobosining quchog'iga otili, to'ng'ichi Shukurjon kulganicha, tek turibdi. Meliboy ota o'rnidan turdi va nabirasi tomon qadam tashladi.

– Ehhe kursant, zo'rsan-ku! – bobo mamnun kulgancha nabirasini bag'riga bosdi. – O'qishlaring yaxshimi, qachon tugatasan? – bobo quvonchdan yashnab, ketma-ket savol berdi.

– Dadajon, bu yil tamomlaydi o'qishni, keyin Vatan xizmatida bo'ladi, – Umidaxon mamnuniyat bilan o'g'lining o'rniga javob berdi.

– Shukur, ming bor shukur! Shu kunlarni ko'rish takror nasib etganiga shukur, – otaxonning ko'zlariga yosh qalqdi.

Meliboy ota rafiqasi Xursanoy aya bilan 3 qiz farzand ko'rdi, ularga yaxshi tarbiya berdi, ilmi, hunarli qildi. Lekin uning qalbini bir armon ezib keldi, sababi o'g'illi bo'lmadi.



SHUKRONA

U yoshligidan harbiylikka qiziqqan, ular haqidagi kinofilmlarni ko'zlari yonib, ishtiyoq bilan ko'rgan, lekin niyatiga yetolmagan edi. Ammo orzu qilishdan charchamagan, qachonki, oilali bo'lib, o'g'il ko'rsa, albatta, uni harbiy qilishga ahd qilib yashadi. Afsus u o'g'illi bo'la olmadi, lekin qizlariga buni sezdimadi, ich-ichidan kuyib yonsa-da, na kampiriga ta'na qildi, na qizlarini kamsitdi.

Yillar o'tib, qizlarini turmushga uzatdi. Katta qizi Gulsara kuyovi Bekjon bilan yashaydi, 3 nafar o'g'li bor, ularning ikkitasi harbiyda xizmat qiladi, kichigi esa hali o'quvchi. O'rtancha qizi Shalola qo'shni tumanga turmushga chiqqan, bir o'g'il, bir qizi bor. Masofa uzoqligidanmi, ota hovlisiga kam keladi. Shalola ham otasining armonini ich-ichidan

his qilgan, shu bois o'g'li Jasurni harbiy akademiyaga berdi, o'qishni tamomlagan nabira harbiyda ishlaydi, hozir.

– Voy bobosi, mehmonlarni sovuqda ushlab turmang, qani, hamma uyga, – Xursanoy ona va qizi nabiralari bilan ko'rishib, ularni ichkariga boshladi.

– Bobojon, Qo'chqor akam qo'ng'iroq qilyapti, – Gulsaraning kichik o'g'li Baxtiyor uydin yugurib chiqdi va qo'lidagi telefonni bobosiga uzatdi. Meliboy ota telefonni olib, mamnun holda nabirasi bilan suhbatlasha boshladi. Uning yuzlaridan faxr hissi yaqqol sezilib turardi. Ota nabirasi bilan uzoq gaplashdi, nasihatlar qildi, so'ng uyga kirdi.

– Ha, dadasi, nabiram yaxshi ekanmi? – dedi Xursanoy xola choliga yuzlanib.

– Qo'chqor bolamga gap yo'q! U askarlar o'rtasida o'tkazilgan kitobxonlik tanlovida 1-o'rinni olibdi, tashakkurnomani qo'lga kiritibdi, – quvonib gapirdi otaxon.

– Voy, qanday yaxshi, o'zi bo'ladigan bola edi-da, Qo'chqorim, – Xursanoy ayaning ko'zlari yoshga to'ldi.

– E, onasi, birinchilikni nabirang emas, aslida sen olding, esingdami, tongga qadar ertag-u rivoyatlar aytib, ajabtovur topishmoqlaring bilan nabiralaringning uyqusini qochirarding. Mana, o'sha mehnatlaring mevasi bu! – shunday deya otaning ham tovushi titrab ketdi.

Ha, hozirgidek yodida. Gulsaraning kuyovi bilan uyiga ko'chirib olib kelganda, uning qo'lida Qo'chqorboy 2 yashar go'dak edi. Qizi va kuyovi ishga astoydil sho'ng'ib ketgan, ketma-ket yana 2 o'g'il ko'rishsa ham qizi ishdan ajramagan. Uchala nabira buvisining qo'lida katta bo'ldi. Kampiri mutolaani yaxshi ko'rardi, bolalarda ham kitobga mehr uyg'otdi, ular maktabda a'lo baholarga o'qidi, mana, to'ng'ich nabirasi xizmatda, buvisining tarbiyasini oqlabdi.

– Barakalla, bolam! – ota beixtiyor shunday dedi-yu, tashqariga chiqdi. Otaxon takror va takror "Shukur, beaded shukur!" der, ko'zlaridan esa shukronalik tomchilari dumalab, yuzlarini yuvardi. U ayni paytda o'g'li yo'qligidan sira afsuslanmadi, zero o'g'il nabiralari uning armonlarini yo'qqa chiqargan edi.

O'ktamxon AKBAROVA,
"Dang'ara" gazetasi
bosh muharriri

Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi





SAMARALI ISHLASH MEXANIZMI MUHOKAMA QILINDI

Mudofaa vazirligiga qarashli Qorako'l tumanida joylashgan harbiy qismda O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat kengashi, viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi hamda Buxoro harbiy prokuraturasi bilan hamkorlikda viloyatdagi kuch tuzilmalaridagi harbiy qism boshlang'ich tashkilot yetakchilari bilan 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar sarhisobi va 2026-yildagi ustuvor vazifalar, reja-tadbirlar va maqsadli dasturlarni belgilash bo'yicha seminar o'tkazildi.

Seminarda yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish, ular orasida vatanparvarlik, milliy g'urur, Vatanga sadoqat va faol fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash masalalari atroflicha muhokama qilindi. Shuningdek, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida boshlang'ich tashkilot yetakchilarining o'rni

va mas'uliyatiga alohida e'tibor qaratildi.

Tadbir davomida ishtirokchilarga yoshlar bilan ishlashda qo'llanilayotgan zamonaviy usul va mexanizmlar, tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etish yo'llari hamda amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarining mazmun-mohiyati yuzasidan tushunchalar berildi. O'zbekiston yoshlar ittifoqi mutaxassislari tomonidan yoshlarning huquq va manfaatlarini, huquqbuzarlik sodir qilgan yoshlarni kafillik asosida himoya qilish va ularni qo'llab-quvvatlash borasida amaliy yo'nalishlar ko'rsatildi.

O'quv seminari dasturiga muvofiq, harbiy qism boshlang'ich tashkilot yetakchisi xonasida amaliy mashg'ulot o'tkazilib, unda davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlari to'g'risida o'zaro tajriba almashildi.

TOQQQ matbuot xizmati

Ijtimoiy himoya

HARBIY PROKURATURA – ARMIYA PROKURATURASI

Har yili "Harbiy prokuratura – armiya prokuraturasi" shiori ostida harbiy xizmatchilarning rafiqalari va farzandlari, shuningdek harbiy xotin-qizlar tor ixtisoslik bo'yicha malakali shifokorlar ko'rigidan o'tkazib kelinadi.

An'anaga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Qurolli Kuchlar vazirligi va idoralari bilan hamkorlikda Toshkent viloyatidagi harbiy qismlarning birida navbatdagi ko'p tarmoqli malakali tibbiy ko'rik tashkil etildi.

Dastlab ayol-qizlar ishtirokida davra suhbatlari o'tkazilib, unda ko'krak bezi saratoni kasalligi yildan yilga oshib borayotgani, bu borada mas'ullar va mutasaddilar ishtirokida ushbu turdagi kasalliklar bilan kurashish borasida tegishli tadbirlar amalga oshirilayotgani alohida ta'kidlandi.

Shundan so'ng tibbiyot mutaxassislari ishtirokida chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik tashkil etildi. Shuningdek, jarayonda harbiy xizmatchilarning oila a'zolari uchun mehnat yarmarkasi ham tashkil etildi.

Adliya podpolkovnigi
Botir SOBIROV,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy prokurorining
katta yordamchisi

Qaror va ijro

Prezidentimizning 2026-yil 5-yanvar kungi "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan Toshkent shahrining Bektemir tumaniga mas'ul qilingan ishchi guruh tomonidan mahallalarda aholi xavfsizligini mustahkamlash, huquqbuzarlik, jumladan jinoyatlarning oldini olish borasidagi ishlar davom ettirilmoqda.

AMALIY TADBIRLAR

Shuningdek, tegishli soha mutaxassislari ishtirokida ijtimoiy soha obyektlari, savdo markazlari, bozorlar va boshqa obyektlarda zilzila va yong'in sodir bo'lgan holatlarda favqulodda harakat qilish, is gazi va gaz-havo aralashmasi chaqnashining oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar jadal olib borilmoqda.

Shu bilan birga, o'quvchi-yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik, jumladan jinoyatlarning oldini olish bo'yicha targ'ibot-tushuntirish ishlari o'tkazilmoqda.

Mahallalarga biriktirilgan patronajlarning namunaviy vazifalari ijrosi o'rganilib, ularning aholi bilan ishlash borasidagi faoliyati natijalari tahlil va muhokama qilib borilmoqda.

Amaliy tadbirlar izchil davom etmoqda.

Adliya polkovnigi
Sherzod SAIDOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi

Profilaktika

OCHIQ MULOQOT

Toshkent harbiy prokuraturasi tomonidan jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda.

Jumladan, Zangiota tumanida joylashgan qator harbiy qism va muassasalarda harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar xizmatchilari ishtirokida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha profilaktik muloqot o'tkazildi.

Muloqot davomida firibgarlik, korrupsiya, giyohvandlikka qarshi kurashish, bu kabi jinoyatlar uchun qonunchilikda nazarda tutilgan javobgarlik va uning huquqiy oqibatlari haqida tushuntirishlar berildi hamda harbiy xizmatchilarga yaratilgan shart-sharoitlar o'rganildi.

Tadbir ishtirokchilari o'zlarini qiziqtirgan savollarga atroflicha javob oldi.

Adliya podpolkovnigi
Shohrux VAXOBOV,
Toshkent harbiy prokurorining o'rinbosari

Sayyor qabul

Toshkent harbiy prokuraturasi tomonidan yoshlar, harbiy xizmatchilar va oila a'zolarining huquq va erkinliklarini amalga oshirishda huquqiy yordam ko'rsatish hamda muammoli masalalarga qonuniy yechim topish maqsadida Zangiota tumanida joylashgan harbiy tuzilmalarning birida ommaviy sayyor qabul o'tkazildi.

MUROJAATLAR O'Z YECHIMINI TOPMOQDA

Unda Toshkent harbiy prokuraturasi, Toshkent harbiy sudi, Toshkent harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi mas'ullari tomonidan mutaxassislari ishtirokida murojaatlar tinglandi.

Jarayonda murojaatlarni imkon qadar joyida ijobiy hal etish choralari ko'rildi. Shuningdek, huquqiy tushuntirishlar berilib, ko'rib chiqish muddati talab etadigan murojaatlar nazoratga olindi.

Adliya podpolkovnigi
Olim XAYDAROV,
Toshkent harbiy prokurorining katta yordamchisi

Suhbat

FIKR-MULOHAZA ALMASHILDI

Namangan viloyati Yangiqo'rg'on va Norin tumanlarida chaqiriluvchilar va ularning ota-onalari ishtirokida ochiq muloqot o'tkazildi. Unda Namangan harbiy prokuraturasi, tuman hokimliklari, ichki ishlar bo'limlari va mas'ul tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda Qurolli Kuchlar tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, harbiy xizmatning ahamiyati, harbiy xizmatchilar uchun joriy etilgan imtiyoz va afzalliklar haqida batafsil ma'lumot berildi.

Shuningdek, oliy harbiy ta'lim muassasalariga va Huquqni muhofaza qilish akademiyasiga kirish tartibi haqida atroflicha tushuntirildi.

Korrupsiya holatlarining oldini olish masalasi ham ishtirokchilarning diqqat markazida bo'ldi.

Adliya mayori
Ikrom ULKANBOYEV,
Namangan harbiy prokurorining o'rinbosari

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

Keyingi yillarda mamlakatimizda yosh avlodni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy yuksalishiga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Qashqadaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Shahrizabz shahri o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasasi jamoasi tomonidan ham talay ishlar amalga oshirilmoqda.



QULAYLIK, IMKONIYAT, NATIJA...

Xususan, bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda shahar hokimligi, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari hamda Yoshlar ishlari agentligi, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda harbiy-vatanparvarlik targ'iboti yo'nalishida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda. Belgilangan rejaga muvofiq, tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda mehnat faxriylari, harbiy xizmatchilar hamda turli soha vakillari ishtirokida uchrashuvlar o'tkazish ham an'anaga aylangan.

– Chunonchi, mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan “Milliy armiya – ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni!” shiori ostida o‘tkazilgan “Vatanparvarlik oyligi” doirasida tashkil etilgan barcha tadbirlar bu borada olib borilayotgan ishlarimiz jumlasidan, – deydi markaz direktori Mansurbek Rustamov. – Albatta, bu kabi tadbirlar yoshlarimiz qalbida yurt

kelajagiga mas'ullik hissini shakllantiradi. Chunki sog'lom fikrli, keng dunyoqarashga ega yosh avlodni tarbiyalash tashkilotimizning muhim vazifalaridan biridir.

Shu kunlarda markazda ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Buning uchun tashkilotda barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Ma'naviyat

va ma'rifat xonasi, zamonaviy avtodrom, o'quv xonalari, turli rumumdagi o'quv-mashq avtomobillari va boshqa o'quv inshootlari faoliyati izchil yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, bu yerda katta mehnat tajribasiga ega, bilimli, o'z ishiga mohir o'qituvchilar hamda amaliy boshqarishni o'rgatuvchi-mutaxassislar tinglovchilarga haydovchilik kasbining sir-asrorlarini qunt bilan o'rgatib kelmoqda. Bu kabi qulaylik va imkoniyatlar, o'z navbatida, tinglovchilar uchun "A", "B", "BC", "BE", "CE"

hamda "D" toifali haydovchilik kurslarida tahsil olishlari va qayta tayyorlash kurslarida o'z malakalarini oshirishda qo'l kelmoqda.



Bundan tashqari, yoshlar o'rtasida turli sport musobaqalari, jumladan ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida Shahrisabz shahridagi umumta'lim maktablarining o'quvchilari ishtirokida havo miltig'idan o'q otish, shaxmat-shashka musobaqalari hamda "Yo'l harakati qoidalari bilimdoni" viktorinasi o'tkazildi. Albatta, yuqori saviyada tashkil etilgan bunday musobaqalar ishtirokchilarga olam-olam quvonch ulashdi.

Ayni paytda tashkilotda “Havo miltig’idan o’q otish”, “Duatlon” kabi seksiyalar faoliyat ko’rsatmoqda. O’z navbatida, to’garak a’zolari nufuzli musobaqalarda ishtirok etib, faxrli o’rinlarni qo’lga kiritmoqda.

Akbar ALLAMURODOV



REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA
REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

IMKONIYATLAR

ESHIGI OCHIQ

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining joylardagi o'quv sport-texnika markazlari malakali haydovchilar tayyorlash borasida keng imkoniyatlarga ega o'quv maskanlari hisoblanadi. Xususan, tashkilotning Samarqand viloyati kengashi tasarrufidagi Kattaqo'rg'on shahri o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasasida ham o'quv jarayoni nazariya va amaliyot uyg'unligida o'ziga xos uslubda tashkil etilgan.

Natijada ko'p yillik boy tajribaga ega malakali mutaxassislar faoliyati haydovchilar tayyorlash tizimining takomillashuviga hissa qo'shmoqda. Buning uchun, albatta, markazimizda barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan. "A", "B", "BC" toifa bo'yicha haydovchilar tayyorlash ishlari bu yil ham jadal davom ettirilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan o'tkazilgan "Vatanparvarlik oyligi" doirasida tashkilotning o'quv kurslarida

o'qiyotgan yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va kasbga tayyorlash borasida ham bir qancha ishlar amalga oshirildi. Xususan, "Milliy armiya – ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni!" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir va ochiq eshiklar kuni o'tkazildi. Shuningdek, o'quvchi-yoshlar o'rtasida turli mavzularda ko'rik-tanlovlar hamda sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazildi.

Jumladan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish maqsadida shahardagi umumta'lim maktablari o'quvchilari ishtirokida sport musobaqalari tashkil etildi.

O'tkazilayotgan bunday tadbirlar markazda yoshlarning nafaqat texnik, balki ma'naviy va jismoniy jihatdan ham sog'lom



**Alijon TEMIROV,
“Vatanparvar” tashkiloti
Kattaqo‘rg‘on shahri
O‘STM NTM direktori**

Yoshlar qalbida harbiy-vatanparvarlik tuyg'ularini kamol toptirishda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Sirdaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Guliston shahri o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasasi jamoasi tomonidan muayyan natijalarga erishilmoqda.

EZGU AMALLAR IFODASI

Jumladan, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni har jihatdan barkamol etib tarbiyalash kabi ezgu amallar markazimiz faoliyatida o'z ifodasini topmoqda. Bu borada tashkilotimiz Guliston shahridagi bir qancha davlat va jamoat tashkilotlari bilan amaliy hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Shuning uchun belgilangan reja

asosida ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlarini muntazam ravishda tashkil etmoqdamiz.

Bundan tashqari, sportning texnika va amaliy turlarini aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida rivojlantirish borasida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada shahrimiz yoshlari viloyat va mamlakat miqyosidagi musobaqalarda faol ishtirok etib,

sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqda. Ayni paytda yoshlarimiz sportning texnik va amaliy turlaridan "Havo miltig'idan o'q otish", "Karting" kabi muhim turlari bilan shug'ullanmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston
Respublikasi Qurolli Kuchlari
tashkil etilganining 34 yilligi
hamda Vatan himoyachilari kuni
munosabati bilan o'tkazilgan

“Vatanparvarlik oyligi” doirasida yoshlarning keksa avlod vakillari bilan uchrashuvlari, davra suhbatlari tashkil etildi.

Shu kunlarda markazda haydovchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash borasida ham muayyan ishlar qilinmoqda. Belgilangan reja asosida "B", "BC" toifali haydovchilar tayyorlanmoqda. Buning uchun tashkilotimiz zamonaviy innovatsion jihozlar hamda o'quv-mashq avtomobillari bilan ta'minlangan.

Aytish mumkinki, mavjud sharoitlar bo'lajak haydovchilar malakasini oshirishda har tomonlama qo'l kelmoqda.

Mahmudjon SHERQULOV,
“Vatanparvar” tashkiloti
Guliston shahri
O‘STM NTM direktori



Umr manzaralari

OLISDAGI YULDUZLAR VA MEN



Bekatlarda o'tirgancha osmonga tikildim. Uzoq kutilgan qor yog'yapti. Shaharning charog'on chiroqlariga aralashgan qor uchqunlari biram fusunkor. Ko'ngling ham yorug'lansa... o'ynoqlab tushayotgan qor zarralariga kaftimni tutaman. Og'ir o'ylardan qochgim keladi. Imkonsiz. Akamning ahvoli og'irlashibdi. O'n yildan oshdi, kasallik bilan kurashib yashaydi.

Telefon qo'ng'irog'idan yuragim bezillab qoldi. Avtobus keldi. Bir-ikki qadam bosdim-da, orqaga qaytdim. Qorda picha piyoda yurgim keldi. Zora, yonayotgan yuragim taftini qor uchqunlari biroz bo'lsa ham sovitisa.

Hayot juda g'aroyib. Necha yillarki, tug'ilib o'sgan go'shamdan olislardan. Avvallari o'sha olis-olislarda bir porloqlik bor edi, yorug' va katta yulduzlar kabi shu'lanlab turardi. Olisdan turib ham, haroratini his etar edim, isinar edim, ularga intiq edim. Katta yulduzlarim – onam, otam, onam kabi opam, sevimli akam... Bir-bir so'ndilar. Hozir ham o'sha olis-olislarda yulduzlar yonib turadi. Biroq nurlari susaygandek.

Mayli, unda-bunda shu'lanlab tursa ham mayli, muhimi, ularning borligi. Shunday emasmi?!

Nega nurlar susayadi? Borman-ku?! Susaymasligi kerak!

To'satdan bir o'ydin ongim yorishib ketgandek bo'ladi: endi men... men olisdagi shu'laga aylanganman. Uzoqdagi yaxshilarim uchun, meni yaxshim deb bilganlar uchun.

Qorli yo'lakdan o'z o'ylarimga g'arq ketar ekanman, cho'ntagimdagi qo'l telefoni "zirilladi". Unga javoban yuragim ham zirillab ketdi, "Akamning ahvoli yaxshimikan?" Telefon tutgan qo'lim titraganidan ekran yuzidagi yozuvni o'qiy olmayman, shosha-pisha "javob" tugmachasini bosdim. Katta akamning ovozidagi xotirjamlik yuragimga ko'chdi. Shunday bo'lsa ham, betoqat bo'lib ketyapman. Ichimdagi "Tezroq, tezroq gapiring, meni qo'ying, akamning ahvoli qanday, o'nglandimi?" degan hayqiriqni arang bosdim. Nihoyat, "Xavotir olma, o'ziga kelib, ko'zlarini ochdi, gaplashyapti..." Ko'zlarimga duvullab yosh keldi, yig'imni bildirmaslik uchun entikib "Ertaga, saharlab yo'lga chiqaman, to'g'ri kasalxonaga boraman", dedim. "Kela qol, – dedi akam, ko'rmaguncha ko'ngling tinchimaydi, bilaman". Og'aining qozoni boshqa, qayg'usi bir, deganlari shu-da.

Qor yog'ayotganida olam bir boshqacha go'zallashib ketar ekan. Ko'ngling xush esa dunyo ham ko'zingga go'zal ko'rinadi, xushxabarlar shunday, olamni,

odamlarni ko'zingga go'zal ko'rsatadi. O'zimni qanoti bordek his qildim. Ezgin o'ylar chekindi. Qo'limni ochaman, kaftlarimga qo'nib, erib ketayotgan qor zarralariga qarab, boladek quvonib ketdim.

**Og'amnikida yongan chiroq
Shu'lasini mendan yiroq.
Og'amnikida yonmasa chiroq
Firoqi o'rtar biroq.**

Qahratonda ham qalblarimizga harorat baxsh etuvchi shu'lalar bizdan yiroq bo'lsa ham, yonib tursin, o'chmasin.



AKA-UKA

Toshkent katta shahar. Ehtimol, unchalik ham katta emasdir. Ammo mendek qishloqdan kelib, shaharda yerlashib qolgan odam uchun juda katta tuyuladi.

"Oloy" bozori to'g'risidagi bekatda avtobus kutayapman. Bekatdagi o'rindiqqa hamma ham o'tirmaydi. Men o'tiraman. Chunki 85-avtobusning oraliq vaqti biroz ko'proq. O'tirib atrofni kuzataman. Katta ko'chaning narigi tarafida qarshimda bir juft ulkan va chiroyli daraxtlar bor. Ko'zimga tirik va sirli ko'rinadi. Yalang'och novdalarining izillagan sovuq, qor, yomg'ir, shamollarga bardoshiga hayratda qolaman. Ixtiyorsiz, o'zimni shu daraxtlar o'rniga qo'yib ko'raman... Qiyin, qiyin, mardona turmoq juda qiyin.

Yonimga o'tirmoqchi bo'lgan yo'lovchiga biroz surilib joy berdim. Chakka sochlariga oq oralagan, po'rim kiyingan baland bo'yni erkak xastadek ko'rindi. O'rindiqqa og'ir cho'kkani uchun shunday xayolga bordim.

Avtobuslar biri ketib, biri kelyapti. Qanchalik kuzatuvchan bo'lmayin, bekatda turgan odamlar qiyofasi yodimda qolmaydi. Shu payt yonimda o'tirgan erkak "Akaal" deya, o'rnidan otilib turdi. Aka biroz gavgaliroq ekan. Ikkovlari ko'rishib, qarshimda turib qoldi.

Nima bo'пти, aka-uka ko'rishib qoldi, oddiy holat-ku?! Ha, oddiy holat. Ammo yonimdagi erkak "aka" degan chorlovni shu qadar bolalarcha sevinch bilan aytidiki, ikki erkakka nigohim qanday qadalib qolganini sezmayman.

– Qandaysan? Sog'lig'ing yaxshimi?

– Ha, yaxshi, yaxshi. Ishga ketyapsizmi? Orqangizdan ko'rib qoldim, avtobusga chiqib ketasizmi deb ovozimni baralla qo'yib chaqirdim.

Aka kuldi. Yaqinroq kelib, ukasiga razm soldi.

– Ozib qolibsan, sog'lig'ing yaxshimi? Yaxshi ovqatlanyapsanmi?

– Yaxshi, yaxshi, xavotir olmang!

– Oilang tinchmi? Oldimga kelmay qo'yding...

– Yaxshi deyaipman-ku, hammasi yaxshi! Bugun-erta boraman deb turgandim, o'zingizni ko'rdim, yetadi.

– Avtobusim keldi, chindan ham sog'lig'ing yaxshimi? O'zingni ehtiyot qil!

– Yaxshi ishlang, siz ham o'zingizni ehtiyot qiling!

Ularga boqib o'ylanib qoldim. Men hech qachon mana shu erkakka o'xshab ko'chada opam yo akamni tasodifan ko'rib qolmayman. Ular olisda yashashadi. Unga juda havasim keldi. Akamni, opamni ko'rgim keldi. Bu odamning yosh boladek akasining ortidan quvonib qarab qolganinichi.

Kunbo'yi shu holat ko'z o'ngimdan ketmadi. Erkak aniq xasta edi, shunchaki akasidan yashirdi yoki akasini ko'rganida xastaligini unutdi. Diydor ham malham, aslida.



UMID

Ayol allaqachonlar ta'mirtalab bo'lib qolgan uyining eshigiga qarab, yuragi siqildi. Fanerlar bilan yamab-yasqabgan eshik juda g'arib ko'rinardi. Ayniqsa, qop-qorong'i dahliz, unniqib ketgan sholcha... Bularni qachonlardir yangilash imkoni bo'lar ekanmi? Yo shu g'ariblik ichida o'zi ham o'ngib o'tib ketarmikan? Uning ham hayotida yo'qchilik kunlari ortda qolib, yorug' kunlar kelarmikan?

Dahlizning chirog'i kuyan. Usta chaqirishga ortiqcha puli yo'q. O'zi harchand urindi, tuzata olmadi. Qorong'ilik dahlizdan o'tib, ruhini ham qoplayotgan bir pallada eshik ochilib, o'ynoqlab oppoq kapalak kirib keldi. Ha, ha, oppoq kapalak, oppoq kapalak kabi qizaloq. Qo'lida yelim xaltaga solingan bitta buxanka non, qorong'i dahlizda raqs tushgancha oyoq kiyimini yechdi. Kela solib, o'zini onasining bag'riga otdi. Ayol ko'zlarida quvonch porladi, og'ir o'ylar uchib ketdi.

Bu kapalak bilan uyning g'arib holati bilinmay qoldi. Quvnoq chug'ur olamni to'ldirdi. Endi bu g'arib uy emas, ona va qizaloqqa tegishli saltanat edi. Umid saltanati edi.

Inobat NODIRSHOH



MUASSIS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Alisher Ergashev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

ko'tibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Bobur Elmurodov

Sahifalovchi: Tohirjon Turg'unboyev

Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: 372

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 34 076 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Muruvvatli-dil press" MChJ mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"Muruvvatli-dil press" MChJ

bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Chilonzor tumani "Nafosat" MFY Qatortol ko'chasi, 21-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan
tahririyati bilan bog'lanish
uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA



www.mudofaa.uz



t.me/mv_vatanparvar_uz



t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz



vatanparvar-bt@umail.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya